M.E.Po‘latov, T.S.Sharipov,
I.E.Shadmanov, B.M.Bobokulov,
Sh.S.Sharifov, S.B.Boboqulov,
Z.K.Raximov

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI TAYYORLASH VA RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

bo‘yicha

USLUBIY KO‘RSATMA

310000–“Ijtimoiy va hulq atvorga mansub fanlar”, 410000–“Biznes va boshqaruv”, 1010000–“Xizmatlar ko‘rsatish” ta’lim sohasi talabalari uchun

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“REAL IQTISODIYOT” KAFEDRASI



M.E.Po‘latov, T.S.Sharipov, I.E.Shadmanov, B.M.Bobokulov, Sh.S.Sharifov, S.B.Boboqulov, Z.K.Raximov

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI TAYYORLASH VA RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

bo‘yicha

USLUBIY KO‘RSATMA

310000–“Ijtimoiy va hulq atvorga mansub fanlar”, 410000–“Biznes va boshqaruv”, 1010000–“Xizmatlar ko‘rsatish” ta’lim sohasi talabalari uchun

Samarqand-2026

M.E.Po‘latov, T.S.Sharipov, I.E.Shadmanov, B.M.Bobokulov, Sh.S.Sharifov, S.B.Boboqulov, Z.K.Raximov. Bitiruv malakaviy ishini tayyorlah va rasmiylashtirish tartibi. bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma (310000–“Ijtimoiy va hulq atvorga mansub fanlar”, 410000–“Biznes va boshqaruv”, 1010000–“Xizmatlar ko‘rsatish” ta’lim sohasi talabalari uchun). – Samarqand.: SamISI nashri;. 2026.– 68 bet.

Ushbu uslubiy ko‘rsatmada bitiruv malakaviy ishining bajarilishi, tayyorlanishi va ularni rasmiylashtirish tartibi bo‘yicha tavsiyalar bayon etilgan. Ko‘rsatma 310000–“Ijtimoiy va hulq atvorga mansub fanlar”, 410000–“Biznes va boshqaruv”, 1010000–“Xizmatlar ko‘rsatish” ta’lim sohasida ta’lim olayotgan talabalarning bitiruv malakaviy ishini bajarishlari, mustaqil ilmiy ish olib borishlari hamda nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash, olingan bilimlarini ishlab chiqarishda qo‘llash bilan bog‘liq masalalar yechimini topishida yordam beradi. Uslubiy ko‘rsatma yuqorida keltirilgan ta’lim sohalari hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-maydagi 168-sonli buyrug‘iga asosan yangilangan klassifikator ta’lim sohalariga oid ishlab chiqilgan va foydalanish uchun tavsiya etilgan.

Mazkur uslubiy ko‘rsatmadan talabalarning bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbarlik qiluvchi barcha professor-o‘qituvchilar foydalanishlari mumkin.

SamISI O‘quv-uslubiy Kengashi majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan (2025-yil 19-dekabrdagi 5-bayonnoma).

Tuzuvchilar: *i.f.d., prof. M.E.Po‘latov, i.f.n., prof. T.S.Sharipov, t.f.n. dots. v.b. I.E.Shadmanov, i.f.n. dots. B.M.Bobokulov, i.f.f.d., dots. Sh.S.Sharifov, i.f.f.d., dots. S.B.Boboqulov, i.f.f.d., dots. Z.K.Raximov.*

Taqrizchilar: E.Shavqiyev – SamISI “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi professori, i.f.n.;
A.B.Taniyev – TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasi professori, i.f.d..

© SamISI, 2026-yil.

MUNDARIJA:

KIRISH..... 5

I. Umumiy ko‘rsatmalar..... 9

II. Bitiruv malakaviy ish mavzusini tanlash..... 11

III. Bitiruv malakaviy ishni bajarishga rahbarlik qilish…… 13

IV. Bitiruv malakaviy ishning bajarilish muhlati…… 14

V. Adabiyotlar ro‘yxatini tayyorlash..... 15

VI. Bitiruv malakaviy ishining amaliyot bilan bog‘liqligi..... 17

VII. Bitiruv ish rejasini tuzish..... 18

VIII. Bitiruv malakaviy ishni yozish……... 22

IX. Bitiruv malakaviy ishini rasmiylashtirish..... 28

X. Bitiruv malakaviy ishiga muallif annotatsiyasini yozish..... 32

XI. Bitiruv malakaviy ishiga taqriz yozish……..... 33

XII. Bitiruv malakaviy ishni himoya qilish..... 33

ILOVALAR..... 39

KIRISH

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida ijtimoiy siyosatni yanada takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni keng tadbiq qilish, inson kapitalini shakllantirish, xalqaro savdo hajmini oshirish, sanoat tarmoqlarini diversifikatsiyalash va iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlari davlatimiz uchun har tamonlama chuqur bilimga ega bo‘lgan, malakali yosh mutaxassislarni tayyorlashni eng muhim vazifa qilib qo‘ymoqda. Xususan, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2024-yil 2-fevralda qabul qilingan “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-54-son Qarorida “pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tahlil qilish, o‘qituvchilarning bilimi va qiziqishiga mos bo‘lgan tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlarini joriy qilish, mazkur jarayonga nodavlat va xalqaro tashkilotlarni jalb qilish”[1] deb belgilab berilganligidan kelib chiqib, oliy ta’lim tashkilotlarida mamlakatimiz ravnaqi uchun mos keladigan kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor berishimizni ko‘rsatib bermoqda.

Shuningdek, iqtisodiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini to‘g‘ri yo‘naltirish, ularni ilmiy fikrlash, tahlil qilish va amaliy muammolarni yechish ko‘nikmalariga ega bo‘lishida muhim o‘rin tutishi bilan belgilanadi. Bugungi globallashuv va raqobat kuchaygan iqtisodiy sharoitda bozor

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tamonidan 2024 – yil 2 – fevralda qabul qilingan “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-54-son Qarori. T:. www.lex.uz

qonuniyatlarini chuqur anglash, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish, innovatsion yondashuvlardan foydalanish, ilmiy-nazariy qarashlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtira olish har bir mutaxassisdan yuqori salohiyatni talab etadi. Shu jihatdan, uslubiy ko‘rsatma talabaga ilmiy ishni qanday boshlash, mavzuni tanlash, maqsad va vazifalarni aniqlash, tadqiqot metodologiyasini to‘g‘ri belgilash, statistik ma’lumotlardan foydalanish, natijalarni asoslash va xulosa chiqarish kabi bosqichlarni aniq ko‘rsatib beradi. Bu esa nafaqat ilmiy ish sifatining oshishiga, balki talabaning iqtisodiy jarayonlarni tizimli tushunishi, tanqidiy tafakkurini rivojlantirishi va mustaqil ilmiy izlanish olib borish malakasining shakllanishiga xizmat qiladi. Eng muhimi, mazkur ko‘rsatma mehnat bozorida raqobatbardosh, amaliy ko‘nikmalarga ega iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda muhim vosita bo‘lib, oliy ta’limda sifatni oshirish, ilmiy tadqiqotlar mazmunini boyitish va iqtisodiyotning real sektorida uchraydigan masalalarni ilmiy yechimlar asosida hal eta oladigan kadrlarni yetishtirishga zamin yaratadi.

Haqiqatdan ham, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon oliy ta’lim tizimida tub islohatlarni amalga oshirilishi bilan, ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha fanlararo yakuniy attestatsiya sinovlariga, shuningdek, bitiruv malakaviy ishlarni bajarish hamda uni himoya qilishga bo‘lgan talab oshib bormoqda. Bunga O‘zbekiston Respublikasining **“Ta’lim to‘g‘risida”**gi va **“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”**ning talablari asos bo‘lmoqda.

Ushbu nizom talablariga muvofiq, talabalarning fanlararo yakuniy attestatsiya sinovidan o‘tishiga yoki bitiruv malakaviy ishining

himoyasi natijasiga asosan har bir oliy o‘quv yurtida tashkil etiladigan davlat attestatsiya hay’ati bitiruvchilarga bakalavr darajasini beradi.

Tta’lim yo‘nalishi bo‘yicha talabalar bajaradigan bitiruv malakaviy ishlari o‘qish jarayonining yakunlovchi bosqichi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish ustida ishlash, birinchidan, oliy ta’lim tizimini bitiruvchi yoshlarning mustaqil ilmiy-uslubiy yo‘nalishlardagi ishlarni olib borishlari, ilmiy yangiliklar ustida ishlashda ilg‘or tajribalardan foydalanishlari hamda ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash, olingan bilimlarini o‘zlarining ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatlari bilan bog‘liq vazifalarni bajarishda vujudga keladigan masalalarni yechishda yordam bersa, ikkinchidan, talaba yoshlarning iqtisodiy tafakkurini shakllantiradi.

Demak, sifatli va ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan mukammal bitiruv malakaviy ishini tayyorlay oladigan mutaxassislarni tayyorlash, professor-o‘qituvchilar zimmasiga ancha mas’uliyat yuklaydi. Shuning uchun ham, har bir kafedrada o‘qitiladigan asosiy fundamental fanlarning o‘ziga xosligidan va shu fanlar bo‘yicha tayyorlanadigan bitiruv malakaviy ishlarni yozish bo‘yicha hamda hukumatimiz tomonidan oliy ta’lim tashkilotlarida mutaxassislarni tayyorlashda qo‘yiladigan sifat talablaridan kelib chiqib, ushbu uslubiy ko‘rsatma tayyorlanishi lozim topildi.

Ushbu uslubiy ko‘rsatmaning asosiy maqsadi, iqtisodchi kadrlarni tayyorlashda va talabalar o‘zlarining bitiruv malakaviy ishlarini yozishlari uchun fundamental xarakterga ega bo‘lgan iqtisodiy-nazariy

fanlarni mukammal o‘rganishlari va bilishlari zarurligini hamda O‘zbekiston iqtisodiy tizimini o‘ziga xosligi va binobarin mamlakatimizda, kelajakda iqtisodiy vazifalarni va xo‘jalik ishlarini yuritish bilan bog‘liq vazifalarni bajara olishlari uchun mutaxassislik bo‘yicha olingan nazariy bilimlarini yanada mustahkamlash hamda mustaqil ravishda tadqiqot ishlarini olib borishlari uchun yo‘riqnoma sifatida yordam berishdan iborat.

I. Umumiy ko‘rsatmalar

Mazkur ta’lim yo‘nalishi talabalari bitiruv malakaviy ishi mavzusini “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi tomonidan tavsiya etilgan mavzular bo‘yicha tanlagan mavzularni o‘zlari amaliyot kursini o‘tgan korxona, tashkilot yoki muassasa ma’lumotlari asosida yozishlari talab qilinadi. Agar tanlangan mavzu sof nazariy ahamiyatga ega bo‘lsa, unda ayni nazariyani hozirgi paytdagi dolzarbligi, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi amaliy ahamiyati va uning istiqbollarini ko‘rsatilishi talab qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishda talaba fanning nazariy asoslarini o‘zlashtirishi va amaliy tomondan ham mustaqil faoliyatga tayyorlanishi zarur. Buning uchun talaba bitiruv malakaviy ishi bilan bog‘liq barcha ma’lumotlarni o‘zlashtirishi zarur, natijada talabalarning amaliy bilimlarini mavzu bilan bog‘liq ilmiy saviyasi biroz oshadi.

Bu uslubiy ko‘rsatmani yozishdan asosiy maqsad, 310000–“Ijtimoiy va hulq atvorga mansub fanlar”, 410000–“Biznes va boshqaruv”, 1010000–“Xizmatlar ko‘rsatish” ta’lim sohasi bo‘yicha ta’lim oladigan bitiruvchi kurs talabalariga, bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbarlik qilayotgan professor-o‘qituvchilar va ilmiy maslahatchilarga uslubiy yordam berishdan iborat.

Uslubiy ko‘rsatmada bitiruv malakaviy ishni yozishda kafedra tomonidan qo‘yiladigan asosiy talablar, mavzularni tanlash uchun maslahatlar, ish rejasini tuzish, zaruriy adabiyotlarni tanlash, ularni o‘rganishda kerakli ma’lumotlarni topish va har tomonlama tahlil qilish, zamonaviy kompyuterlardan keng foydalanish uchun yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatilgan. Shuningdek uslubiy ko‘rsatma yozilayotgan

bitiruv malakaviy ishni qanday talablarga javob berishi, ya’ni uning hajmi, jadvallarni nomlash, nomerlash, ma’lumotlarni joylashtirish tartibi va yozilgan bitiruv malakaviy ishga taqrizlarni aniqlash va uni Davlat attestatsiya hay’atida himoya qilish tartiblari ko‘rsatilgan.

Talabalarga bitiruv malakaviy ishni yozishlari uchun bajarilishi zarur bo‘lgan asosiy vazifalar:

1. Talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, ma’lum bir tizimga solish va bilim doirasini yanada kengaytirish;

2. Talabalarga o‘qish jarayonida olingan nazariy bilimlarni amaliyotda to‘g‘ri yechimini topa bilish va tahlil etishga o‘rgatish;

3. Talabalarni o‘zi tanlagan mavzuni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishini ta’minlash, uni (talabini) yutuq va kamchiliklarini aniqlash, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish;

4. Zarur ma’lumotlarni izlab topish uchun qulay usullarni va vositalarni aniqlash;

5. Axborot manbalaridan samarali foydalanish;

6. An’anaviy o‘quv va ilmiy adabiyotlar hamda me’yoriy xujjatlar bilan ishlash;

7. Mavzu rejasi bo‘yicha, uning nazariy jihatlarini asoslash uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy-amaliy hisob-kitoblarni to‘g‘ri amalga oshirishni o‘rgatish va shu yo‘l bilan talabalarni mavzu rejasini barcha qismlarini har tomonlama chuqur asoslashga va tajriba orttirishga erishish hamda uni yanada rivojlantirish.

Bitiruv malakaviy ishlar mavzusi mutaxassis chiqaruvchi kafedralar tomonidan shakllantirildi va oliy ta’lim tashkiloti yoki o‘quv

uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi hamda uch yil davomida o‘z kuchini yo‘qotmaydi.[2]

Bitiruv malakaviy ishini quyidagi bosqichlarga asoslanib bajarish kerak:

1. Mavzuni tanlash va bajarish vaqtini aniqlash;

2. Mavzu bo‘yicha adabiyot tanlash va ro‘yxatini tayyorlash hamda tanishib chiqish;

3. Bitiruv ishi mavzusiga oid korxona yoki tashkilotni tanlash va ularni xo‘jalik faoliyatidagi iqtisodiy ko‘satkichlarni aniqlash va o‘rganish;

4. Yuqoridagilarga asoslanib bitiruv ish rejasini tuzish;

5. Bitiruv malakaviy ishni yozish va rasmiylashtirish;

6. Bitiruv malakaviy ishning himoyasi.

Malakaviy ish mavzusi va rahbarlarni talabalarga biriktirish kafedraning taqdimnomasi bo‘yicha rektorning buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi. Ish rahbari, malakaviy ishning mavzusiga muvofiq talabalarga malakaviy ishga tegishli materiallarni to‘plash bo‘yicha topshiriq beradi. Topshiriqning shakli ta’lim tashkilotlarining o‘quv-uslubiy boshqarma(kafedra)si tomonidan belgilanadi, topshiriq bitiruv malakaviy ish bilan birgalikda Davlat attestatsiya komissiyasiga topshiriladi.

II. Bitiruv malakaviy ish mavzusini tanlash

Bitiruv malakaviy ishi mavzulari fakultetning mutaxassis chiqaruvchi kafedralari tomonidan ishlab chiqiladi va kafedra majlisida

[2] Shadmanov I.E. Ta'lim yo'nalishlari bitiruvchi kurs talabalari uchun bitiruv malakaviy ishini yozish va rasmiylashtirishga doir uslubiy ko'rsatma. Samarqand. SamISI, 2017. 3-bet.

muhokama qilinib, 5 nafar talabaga bitta mavzu biriktirilib oliy ta’lim tashkiloti yoki fakultetning ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Iqtisodiyot yo‘nalishi bo‘yicha bitiruv malakaviy ishlar mavzusi mazmunan qo‘yiladigan muammoning zamonaviy holatini va butun iqtisodiy, ijtimoiy ishlab chiqarish, texnika, ijtimoiy sohalar, fan, ta’lim va madaniyatning istiqbolli rivojlanishini aks ettirish kerak.

Malakaviy ishlar mavzusining yillik ro‘yxati bitiruv amaliyoti boshlanishiga qadar yoki bitiruv kursining boshida e’lon qilinadi. Talabalarga (reyting bo‘yicha kamayish tartibida) malakaviy ishlarning mavzularini tanlash huquqi beriladi. Talaba yoki talabaning o‘qishi uchun to‘lov-kontrakt mablag‘ini to‘lovchi buyurtmachi zaruriy asoslar bilan malakaviy ishlar mavzusi bo‘yicha o‘z variantlarini taklif etishlari mumkin. Malakaviy ish mavzusi va rahbarini talabalarga biriktirish kafedraning taqdimnomasi bo‘yicha rektorning buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi va mavzular har o‘quv yilida 20-30 foizga yangilanishi tavsiya etiladi.

Oliy ta’limning bakalavriatida o‘qiydigan talabalar bitiruv malakaviy ishi mavzusini 3-kursning ikkinchi yarmida, VI semestrida tanlab, mavzu bo‘yicha kerakli ma’lumotlarni asta-sekin yig‘ib, o‘rganib borsalar, uning mohiyatiga chuqurroq tushunib olsalar, malakaviy ishning bajarilishi ancha samarali bo‘ladi. Agar bitiruv malakaviy ishning mavzusi, talabaning ilmiy to‘garakda avvaldan bajarilib kelgan ishi yoki kurs ishlarining davomi bo‘lsa, unda talaba ayni mavzu mohiyatini va u bilan bog‘liq muammolarni to‘laroq tushunib etgan bo‘ladi hamda malakaviy ishning mantiqiy mazmunining sifati juda yaxshi bo‘ladi. Bundan tashqari, talabalar

o‘zlarini bitiruv malakaviy ishi mavzusini ishlab chiqarish va pedagogik amaliyoti o‘tgan yoki bitiruv ishi oldi amaliyoti o‘tiladigan tashkilot, muassasa yoki korxona faoliyatiga bog‘lab olishlari kerak.

Oliy ta’lim tashkilotlarini bitiruvchi talabalar tanlaydigan malakaviy ishning mavzusi, ular ishlaydigan korxona, tashkilot yoki muassasada bajaradigan vazifasiga mos tarzda olinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Talabalar oxirgi kursning boshida fakultet dekani nomiga ariza yozib, tanlagan mavzuni qaysi tashkilot, muassasa yoki korxona ma’lumotlari asosida malakaviy ish yozilishini ko‘rsatishlari kerak.

III. Bitiruv malakaviy ishni bajarishga rahbarlik qilish

Bitiruv malakaviy ishga rahbarlar oliy ta’lim tashkilotlarining professorlari, dotsentlari, katta o‘qituvchilar, assistentlar va O‘zbekiston fanlar akademiyasiga qarashli muassasalarning ilmiy hodimlari yoki boshqa tashkilot hamda korxonlarning yuqori malakali mutaxassislari safidan rektor buyrug‘i asosida tayinlanadi.

Bitiruv malakaviy ish rahbari quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:

- Malakaviy ish mavzusini tanlashda talabalarga uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatadi.
- talabalarga tanlangan mavzu bo‘yicha topshiriqlar beradi;
- malakaviy ishning bajarilish jadvalini tuzadi yoki tuzishda talabaga yordam beradi;
- mavzu bo‘yicha asosiy adabiyotlar, internet resurslari, ma’lumotlar va arxiv materiallari hamda boshqa manbalarni tavsiya etadi;

- talabalar bilan muntazam ravishda mavzu bo‘yicha konsultatsiyalar o‘tkazadi;
- malakaviy ishning bajarilish jarayonini doimiy nazorat qiladi;
- talaba bajargan malakaviy ishning sifati va muallifligiga javob beradi, mavzularning qaytarilishiga yoki matnlarni ko‘chirilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Bitiruv malakaviy ishi rahbarning taklifiga binoan, kafedra malakaviy ishga rahbarlik qilishga ajratilgan vaqt byudjeti hisobidan ishning ayrim bo‘limlari bo‘yicha maslahatchilarni taklif etishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining bo‘limlari bo‘yicha maslahatchilar etib, oliy o‘quv yurtining professorlari, dotsentlari, katta o‘qituvchilari, assistentlar, ilmiy tadqiqot muassasalarining ilmiy hodimlari hamda boshqa muassasa va korxonalarning yuqori malakali mutaxassislari tayinlanishi mumkin. Maslahatchilar talaba bajargan malakaviy ishning muvofiq qismini tekshiradilar va uning sifatiga javob beradilar.

Malakaviy ish berilgan topshiriq asosida shaxsan talabalar tomonidan bajariladi.

IV. Bitiruv malakaviy ishning bajarilish muhlati

Bitiruv malakaviy ishning rahbari malakaviy ishni bajaruvchi talabalarga topshiriq beradi, bu maxsus topshiriq blankasida o‘z aksini topgan bo‘lishi kerak (1-ilova). Keyinchalik topshiriq Davlat attestatsiya hay’atiga bitiruv ishi bilan birga topshiriladi. Rahbar talabalarga kalendar reja tuzishda, jadval hamda uni bajarilishi,

adabiyotlarni tanlashda har-xil ma’lumotlarni, normativ xujjatlarni aniqlashda yordam beradi. Talabalar bilan suhbat uyushtirishi, konsultatsiya berib turishi, tayyorlangan (yozilgan qismini) avvalgi variantlarini ko‘rib borishi hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish uchun o‘z maslahatlarini aytib turishi kerak.

Rahbar bilan fikr almashuvdan va konsultatsiyadan keyin talaba tomonidan bitiruv ishining alohida boblarini yozish to‘g‘risida kalendar reja tuziladi. Bitiruv ishining ketma-ket bajarilishi (vaqti) kalendar rejaga muvofiq borishi kerak.

Ish yakunlangandan keyin, Davlat attestatsiya hay’ati ish boshlashiga 10-15 kun qolganda kafedraga topshirilishi va talabalar dastlabki himoyadan o‘tishi kerak.

Davlat attestatsiya hay’atiga bitiruv ishini topshirishdan tashqari yana uning ilmiyligi hamda amaliyotdagi qiymati haqidagi ma’lumotlar: amaliyotdagi ahamiyati va samaradoligini ifodalovchi ma’lumotlar, tashkilot yig‘inlarining qarorlari va hokazolar topshirilishi kerak. Bundan tashqari ilmiy rahbarning xulosasi hamda joylardagi rahbarlarning (konsultantlarning) ham taqrizlari topshirilishi kerak.

V. Adabiyotlar ro‘yxatini shakllantirish

Bitiruv malakaviy ishni bajarish bo‘yicha topshiriq tuzib chiqilgandan keyin, talaba mavzu bo‘yicha kerakli adabiyotlarni tanlashga kirishadi. Buning uchun eng avvalo talaba kafedra tomonidan tavsiya qilingan mavzular bo‘yicha asosiy adabiyotlar ro‘yxatidan to‘liq foydalanishi lozim.

Qo‘shimcha adabiyotlarni talabaning o‘zi tanlab, mustaqil o‘rganib chiqishi kerak. Buning uchun axborot-resurs markazlaridagi alfavit bilan tartibli tuzilgan kataloglardan foydalanishi mumkin. Bu holdagi kataloglar tegishli kafedralarda ham bo‘lishi mumkin[3].

Alohida savollar (bob ichidagi qismlar) bo‘yicha jurnallardan, gazetalardan foydalanish mumkin. Ayniqsa, bitiruv malakaviy ishini bajarayotganda, keyingi 5-10 yillar mobaynida chop etilgan tegishli adabiyotlardan foydalanish zarur. Adabiyotlarni tanlash, ularning ro‘yxatini tuzish bilan yakunlanadi.

Talaba tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmon va Qarorlari, hukumat qarorlari, Respublika Oliy Majlisi sessiyasining materiallari o‘rganilishi lozim. Adabiyotlarni o‘rganish jarayonida bitiruv ishiga, uning mavzuiga aloqadorligini hisobga olgan holda, o‘qilgan fanlarga daxli bo‘lgan darsliklarini bobma-bob o‘rganib chiqilsa foydadan holi bo‘lmas. Chunki, bu darsliklardagi nazariy yoki amaliy ma’lumotlar bevosita yoki to‘liq bo‘lmagan holda mavzuga tegishli bo‘lib va o‘z navbatida keyingi bosqichdagi adabiyotni o‘rganish jarayoniga yordam beradi. Adabiyot va darsliklar bilan tanishayotgan davrda maxsus daftarga qisqacha mazmunini ko‘chirish yoki o‘z fikrini tahlil etish yo‘li bilan yozib borish va buning uchun kitob muallifini yozish, kitobning nomi, maqola muallifi va bosmaxona nomi, chop etilgan yil hamda umumiy sahifa ko‘rsatilishi shart. Shuningdek, internet manbaalaridan olingan ma’lumotlarning havolalari keltirish zarurdir.

[3] Shadmanov I.E. Ta'lim yo'nalishlari bitiruvchi kurs talabalari uchun bitiruv malakaviy ishini yozish va rasmiylashtirishga doir uslubiy ko'rsatma. Samarqand. SamISI, 2017. 9-bet.

VI. Bitiruv malakaviy ishining amaliyot bilan bog‘liqligi

Talabalarning bitiruv malakaviy ishiga qo‘yiladigan talablardan biri mavzu bo‘yicha tashkilot va korxonalarning faoliyatlari o‘z aksini topgan ma’lumotlarini yig‘ish va uni tahlil etib, bitiruv malakaviy ishining amaliyot bilan bog‘liqligini yoritishdir. Ma’lumki, sanoat korxonasi, qishloq xo‘jaligi va pulli xizmat ko‘rsatish sohalariga dahli bo‘lgan bir necha yillik ma’lumotlar makroiqtisodiyot va statistika organlari chop etadigan yillik kitoblarda hamda korxona hisobotlarida o‘z aksini topgan bo‘ladi. Shuningdek o‘rganilayotgan amaliyot ma’lumotlari kamida besh yillikni qamrab olgan bo‘lishi lozim. Amaliyot muammolarini o‘rganish va ularni to‘plash bajarilayotgan bitiruv malakaviy ishi yuzasidan o‘rganilayotgan masalalarning hozirgi holatini aks ettirish, ularni takomillashtirish yo‘llarini hamda mavjud muammolarni bartaraf etish chora tadbirlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Ba’zi hollarda zaruriyatdan kelib chiqqan tarzda kerakli ma’lumotlarni to‘plash maqsadida maxsus kuzatuv ishlari ham amalga oshiriladi. Amaliyot ma’lumotlarini o‘rganish natijasida olingan raqamli ma’lumotlar jadval ko‘rinishida tartibga solinib umumlashtiriladi hamda ulardan iqtisodiy tahlillarni amalga oshirishda va xulosa, takliflarni bayon etishda keng foydalaniladi.

Bitiruv malakaviy ishini bajaruvchi talabaga tanlangan mavzuga mos mavjud uslubiy ko‘rsatmalar va ko‘rgazmalar, nizomlar, har-xil normativlar, tashkilot va korxonalarning ma’lumotlari bilan tanishib chiqish zarurati tug‘iladi. Mavzuga oid to‘plangan ma’lumotlar bitiruv malakaviy ishi yozish va uni rasmiylashtirish uchun hal qiluvchi bosqichlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, zamon talablaridan kelib

chiqib, tashkilot va korxonalarning faoliyatida mavjud muammolarni baratarf etish, uni rivojlantirish, davlat strategik dasturlarni maqsadlarini bajarishga xizmat qiladigan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishi lozim.

VII. Bitiruv malakaviy ish rejasini tuzish

Talabalar tomonidan tanlangan bitiruv ishi mavzusi bo‘yicha reja tuzish ilmiy rahbar maslahatlari asosida bevosita talabaning shaxsan o‘zi tomonidan mavzu bo‘yicha ko‘rib chiqilgan va mukammal o‘rganilgan adabiyotlar hamda ishlab chiqarish amaliyoti mobaynida olingan korxona yoki tashkilot faoliyati ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi. Rejaning birlamchi varianti ilmiy rahbarga ko‘rsatilib, o‘zaro muhokama qilinib, lozim bo‘lsa mavzu rejasini, mavzu mazmuniga molik mantiqiy jihatdan mukammallashtiriladi.

To‘liq mazmunli reja, adabiyotlar ro‘yxati, amaliyotda olingan korxona va tashkilot iqtisodiy faoliyati bo‘yicha ma’lumotlar ilmiy rahbarga topshiriladi.

Bitiruv malakaviy ishi tanlangan mavzuning mazmuni va dolzarbligiga qarab 2 yoki 3 bobdan iborat bo‘lishi mumkin. Har bir bob esa 2-3-4 qismdan (paragrafdan) iborat bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bitiruv ishining boblari rim raqamlari bilan qismlari (paragraflari) esa arab raqamlari bilan belgilanib, ular, agar I-bob qismlari (paragraflari) bo‘lsa 1.1, 1.2- tarzda belgilanishi kerak va hokozo. Bitiruv ishining kirish qismi va xulosa (xotima) qismlari tartib raqamlar bilan belgilanmaydi.

Bitiruv ishining kirish qismi 2-4 betdan iborat bo‘lishi va unda bitiruv ishi mavzusini qisqacha mohiyati, dolzarbligi hamda ushbu tanlangan mavzuda o‘z aksini topadigan sohada ayni mavzuning ilmiy jihatdan ishlanganlik darajasi, ya’ni muammoni o‘rganganlik darajasi va shu sohadagi ilmiy qarashlar, bitiruv ishining maqsadi va vazifalari, ishlanmay qolgan tomonlarining yoritish vazifalari, ayni mavzuni ilmiy amaliyotdagi ahamiyati, mavzuning obyekti va predmeti, amaliy yangiligi va ahamiyati hamda bitiruv ishi qaysi korxona yoki tashkilotning iqtisodiy faoliyati va unda qanday muammolar mavjudligi ularni ish tarkibida aks ettirilishi va yozilishi kerak hamda xulosa qilinib, ayni xulosalar bo‘yicha tavsiyalar berilishi kerak.

Bitiruv ishining tanlangan mavzu mazmuniga qarab 2 yoki 3 bobdan iborat bo‘lishligi ilmiy rahbarning maslahati bilan qilinishi kerak. Bitiruv ishining birinchi bobida mavzu bo‘yicha umumnazariy masalalarning mazmuni yoritilishi kerak. Bunda qo‘yilgan muammolarni mavzu mazmuniga tavsiflanishida davlat qonunlari, prezident farmonlari, hukumat va boshqa ijrochi organlarning qarorlarini amal qilishi borasida so‘z yuritiladi. Bobning alohida qismlari (paragraflari), uning mazmuniga muvofiq tuzilishi va muayyan ilmiylikka hamda mukammal mantiqiy bog‘liqlikka ega bo‘lishi kerak. Bob nazariy jihatdan to‘liq va mazmunli bo‘lishi uchun respublika yoki viloyat miqyosida qator yillar mobaynida yig‘ilgan ma’lumotlardan foydalanish, oxirgi va bundan oldingi yil ma’lumotlari taqqoslanish hamda lozim xulosalar chiqarilib umumlashtirilishi kerak.

Mohiyati va hajmi jihatdan bitiruv ishining keyingi boblari mavjud ma’lumotlarning tahliliga asoslanishi kerak. Chunki,

ma’lumotlar tegishli xulosalar chiqarish va takliflar berishda katta ahamiyatga ega. Takliflar tahlil natijasida o‘rganilayotgan sohada aniqlangan ba’zi kamchiliklarni bartaraf etish, soha iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish kabi masalalar asosida yozilishi kerak.

Agar bitiruv ishi uch bobda rejalashtirilgan bo‘lsa, unda ishning ikkinchi bobida talaba ishlab chiqarish amaliyotini o‘tgan korxona yoki tashkilot iqtisodiy faoliyatining ikki, uch yillik ma’lumotlarni chuqur va har tomonlama iqtisodiy tahlil qilish va ularni sistemaga (tizimga) solishi zarur bo‘ladi. Tahlil jarayonida olingan natijalarga qarab, xoh u ijobiy bo‘lsin, xoh u salbiy, talabalar o‘zining xulosasini yozishi kerak.

Bitiruv ishining uchinchi bobida talabalar o‘rganilgan tahlil natijalari, o‘rganilayotgan korxona va tashkilotni iqtisodiy faoliyatini ko‘rsatkich raqamlarini hamda respublika, viloyat va boshqa manbalar bo‘yicha ma’lumotlarni tavsiya etilgan meyyoriy ko‘rsatkichlar bilan taqqoslab, o‘z shaxsiy fikrini aks ettirishi kerak. Raqamli iqtisodiyotiyotga o‘tish sharoitida ilg‘or korxona va tashkilotlarning ish tajribalarini hisobga olib talabalar o‘z bitiruv ishiga o‘rganilayotgan tegishli soha faoliyatini kelajakda yanada takomillashtirish uchun, ilmiy rahbar maslahati bilan aniq takliflarni berishi tavsiya etiladi.

Ishni uchinchi bobida talaba tomonidan o‘rganilgan soha bo‘yicha umumiy fikrlar bildirilib, uning kelajakdagi faoliyatini yaxshilash, samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq ishlab chiqarilgan takliflar kiritilishi kerak. Bundan tashqari, xo‘jalik faolyati ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va rejalashtirishni takomillashtirish haqida ham aniq fikrlar bo‘lishi kerak.

Bitiruv ishini yozish jarayonida, tahlil va rejalashtirishda hozirgi zamon iqtisodiy fanlarida qo‘llanilayotgan yangi ilmiy usullardan hamda iqtisodiy statistika usullaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Bitiruv ishining xulosa qismida, talabalar qisqa mazmunda 4-5 bet hajmida o‘rganilgan sohaning iqtisodiy ko‘rsatkichlari va mavzu bo‘yicha ma’lumotlariga hamda tahlil natijalariga qarab o‘zining yakunlovchi fikrida tegishli sohaning ayni holati va uning istiqbollarini ko‘rsatishi tavsiya etiladi.

Bitiruv ishining mazmuniga qarab, ilmiy rahbar maslahati bilan tuzilgan reja ikki bobdan iborat bo‘lsa, unda birinchi bobda yuqorida ko‘rsatganimizdek, umumiy nazariy savollar o‘rganilib, ish mavzusiga tegishli tomonlari qay darajada iqtisodiyot taraqqiyoti muammolari bilan bog‘langanligi aniqlanadi va aynan shu bobda ko‘rsatiladi. Shuning uchun ham, ikki bobli bitiruv ishining birinchi bobi qismlari (paragraflari) uch bobli bitiruv ishi qismlaridan farqli o‘laroq, ko‘proq bo‘lishi mumkin.

Bitiruv ishining ikkinchi bobi qismlari ham mavzu mazmuni to‘liq yoritilishi uchun ko‘proq bo‘lishi mumkin va bu qismlardagi savollar butun amaliy masalalarni o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lishi kerak.

Bitiruv ishini yozish jarayonida ish rejasini ilmiy jihatdan mukammallashtirish maqsadida, boblardagi ba’zi bir qismlar o‘rnini almashtirish, qo‘yilgan masalarni mantiqiy bog‘liqligini ta’minlash uchun savollarni qo‘yilish mazmuniga o‘zgartirishlar kiritish kabi o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, o‘zgarishlar haqiqiy

hisobot ma’lumotlari yoki reja ko‘rsatkichlarini tahlil qilish natijasida va boshqa ayrim sharoitlarda mavjud bo‘lishi mumkin.

Rejadagi barcha o‘zgarishlar rahbar bilan maslahatlashgan holda hal qilinishi kerak. Ushbu uslubiy ko‘rsatmaning ilova qismida bitiruv ishini namunaviy ish rejasi ko‘rsatilgan.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati, bitiruv ishi rejasining boblari va qismlari tartibiga asosan tuziladi. Ro‘yxatda asosan tanlangan mavzuga to‘g‘ri keladigan yangi ma’lumotlar, turli xil hujjatlar, ilmiy asarlar, maqolalar, yangi iqtisodiy tizimga o‘tish sharoitida chop etilgan manbalar kiritilishi kerak.

VIII. Bitiruv malakaviy ishni yozish

Bitiruv malakaviy ishining asosiy mazmunini yoritish va ifoda etish talabalar tomonidan ko‘p vaqt hamda mehnatni talab qiladi. Bitiruv ishi yozishni boshlashdan oldin, talabalar juda e’tibor bilan to‘plagan barcha ma’lumotlarni va ishchi materiallarni, adabiyotlar, korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyati bo‘yicha ma’lumotlar, statistik raqamli axborotlar, tayyorlangan jadvallar, diagramma va grafiklarni alohida boblar va qismlar bo‘yicha guruhlab chiqib, ularni yetarli ekanligini aniqlash maqsadida ilmiy rahbarga ko‘rsatib, maslahatlashib olishi lozim. Ish mazmunini yoritish va yozishga kirishilganda talaba mavzu mohiyatini to‘la bilishi hamda o‘z fikrlarini iqtisodiy nuqtai nazardan mantiqiy bog‘likda aks ettira olishi lozim.

Bitiruv malakaviy ishni matnini yozish kompyuterda, WORD dasturining Times New Roman, shrifti 14 o‘lchamda, 1.5 intervalda, A4

(21x29) formatli standart oq qog‘ozning bir tomonida kompyuterda yozilgan bo‘lishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishning matni 50-70 varaqdan (ilovalarsiz) yoki 10-15 ming so‘z hajmidan iborat bo‘lishi kerak.

Malakaviy ish betlarida matnning chap tomoni 30 mm, yuqori tomoni 20 mm, o‘ng tomoni 15 mm, quyi tomoni 20 mm bo‘sh bo‘lishi kerak.

Kirish qismidan boshlanib, asosiy boblarga va qismlarga o‘tiladi. Malakaviy ishning kirish qismida ishning o‘qilishi davomida shakllanadigan tushunchani yengillashtirish lozim. Shuning uchun malakaviy ishning obyekti va predmeti aniq va lo‘nda yoritib berilishi, mazkur tadqiqotni o‘tkazishning dolzarbligi asoslanishi kerak. Bitiruv malakaviy ishi o‘zining amaliy yangiligi bilan ajralib turishi kerak. Shuning uchun ishning kirish qismida annotatsiya ko‘rinishida muammoning yechilishi yuzasidan mualliflar tomonidan qilingan yangiliklar bayon etilgan bo‘lishi kerak. Shuningdek, kirish qismida ishning maqsadi va vazifalari, nazariy va uslubiy asoslari, amaliy qiymati va ishning tuzilishi (strukturasi) keltirilgan bo‘lishi kerak. Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

1. ***Mavzuning dolzarbligi;***
2. ***Qo‘yilgan muammoning o‘rganilganlik darajasi;***
3. ***Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari;***
4. ***Bitiruv malakaviy ishining obyekti va predmeti;***
5. ***Bitiruv malakaviy ishining amaliy yangiligi va ahamiyati;***
6. ***Bitiruv malakaviy ishining sutrukturasi keltiriladi.***

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida muammo doirasida o‘rganilayotgan masalalarning qisqacha baho va tavsiflari berilishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy qismi birinchi bobdan boshlanadi bunda talabalar shu bob bo‘yicha o‘zining shaxsiy fikrlariga ega bo‘lishi kerak va o‘rganilayotgan mavzuning nazariy asoslari ochib berilishi kerak. Agar, ishni yozish jarayonida iqtisodiy adabiyotlardan, gazeta va jurnallardan hamda boshqa manba’lardan ko‘chirilgan satrlar (snoska) bo‘lsa, unda albatta, qaysi manba’lardan ekanligini ko‘rsatish zarur. Buning uchun varaqning past qismida, matnlardan keyin qoldirilgan joyda masalan, *B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik).* - *T.: «Barkamol fayz media», 2017, 84 bet.* - tarzida 10 o‘lchamda, 1 intervalda ko‘rsatilishi kerak. Agar matnlararo adabiyot manbai ko‘rsatiladigan bo‘lsa, unda qavsning ichida o‘sha raqamni ko‘rsatish kerak (Masalan: [1; 25–26-b.]). Belgilangan raqam ishning oxirida ko‘rsatilgan adabiyotlarning umumiy ro‘yxatiga to‘g‘ri kelishi kerak.

Bitiruv ishining nazariy qismini yozishda mavjud ma’lumotlarni juda izchil, katta e’tibor bilan o‘rganib, muammolarga yondashuvlar borasida talaba o‘z fikriga va yondashuviga ega bo‘lishi va uni matnlarda aks ettirishi hamda yakunlash jarayonida mustaqil fikrlarini aniq va ravon ifodalab uni ta’riflashi zarur bo‘ladi.

Bitiruv ishining nazariy qismi ayni tadqiqot ishiga, uning yo‘nalishi va kelajakdagi rivojlanish imkoniyatlarini takomillashtirish borasidagi takliflarni o‘z ichiga olishi hamda ular juda mukammal va ilmiy jihatdan asoslangan bo‘lishi kerak. Birinchi bob tugatilib,

ikkinchi bobga, ya’ni ishning asosiy qismiga o‘tilishi juda silliq, fikrlar ketma-ketligiga asoslangan mantiqiy bog‘liqlikda amalga oshirilishi kerak.

Bitiruv ishning ikkinchi bobi yoki amaliy qismi asosiy qism hisoblanib, unda o‘rganilgan ma’lumotlar, ularning har tamonlama tahlili, alohida ko‘rsatkichlarning iqtisodiy jihatdan mukammalligi, agar xo‘jalik iqtisodiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lsa, unda xo‘jalikda erishilgan moliyaviy ko‘rsatkichlarning tahlili aniq belgilanib, yakunlovchi xulosalar chiqarilishi kerak. Bunday ishlarni talabalarning o‘zi ilmiy rahbarning maslahati asosida amalga oshirishi va mustaqil fikrlarga ega bo‘lgan holda yozishi kerak.

Ta’kidlash joizki, matnlarni yozishda adabiy tildan va alohida terminlardan, ya’ni iqtisodiy kategoriyalardan, tushuncha va atamalardan to‘g‘ri foydalanib o‘z o‘rnida ishlatishni bilish hamda jumlalarni to‘g‘ri tuzishga erishish lozim. Talaba matnlarni aniq, oddiy til bilan yozsa, ba’zi jumlalarni qisqartirib yozishni o‘z qoidasi asosida amalga oshirish va fikr aniqligini ta’min etishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, asosiy e’tiborni iqtisodiy jihatdan asoslangan jadvallar, diagrammalar, grafiklardan samarali foydalanishga, umumiy nazariy statistika fanining talablariga rioya qilishga qaratish tavsiya qilinadi. Chunki, har bir jadval, diagramma va grafiklarning mazmuniga qarab ma’noli hamda fikran teran xulosalar chiqarish zarur bo‘ladi. Bu sohada talaba o‘zining shaxsiy fikrini, xulosasini qanday va qaysi yo‘nalishda ketishligini ko‘rsatishi kerak. Bunda albatta ilmiy rahbarning maslahati lozim bo‘ladi.

Bitiruv malakaviy ishda ko‘proq doira, ustun shaklidagi va uzunlikdagi diagrammalardan foydalanish kerak. Bu borada kartogramma ham bo‘lishi mumkin. Bu chiziqli shakllar ma’lumotlarni ijobiy yoki salbiy yo‘nalishini yaqqol va tushunarli qilib izohlaydi. Raqamli ma’lumotlar esa, tushunarli, xotirada qoladigan bo‘lishi bilan birga, tahlil ishini osonlashtirishga yordam beradi. Diagramalar, grafiklar, kartogrammalar esa sodir bo‘lgan, bo‘layotgan holatni jozibador qilib, taqqoslash moyilligi va alohida ko‘rsatkichlar bog‘liqligini yaqqol ko‘rsatadi.

Bitiruv ishida ko‘rsatilgan jami hisobot va boshqa raqamli ko‘rsatkichlar talabalar tomonidan albatta mukammal tekshirilishi, tahlil etilishi, ularning mantiqiy tomonlariga e’tibor qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Xuddi shunday texnikaviy tekshirish, ko‘rsatilgan raqamlarning to‘g‘riligini, arifmetik yakunlar, hisobot va hisoblash hamda raqamli ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘liqligini aniqlashni o‘z ichiga oladi. Raqamli ma’lumotlarni mantiqiy tekshirish jarayonida iqtisodiy faoliyat ko‘rsatkichlarining harakati to‘g‘ri ko‘rsatilishi, ma’lumotlar bir-biri bilan bog‘liqlikka egami kabi jihatlarga e’tiborni qaratish zarur bo‘ladi.

Bitruv malakaviy ishda hamma matnlarni to‘g‘ri to‘liq yozish kerak, jumlalarni o‘z-o‘ziga qisqartirib yozish qat’iyan man etiladi. Faqat umumiy qo‘llaniladigan qisqartirishlar bundan istisno. Masalan, aksionerlik jamiyati o‘rniga A.J. Umumiy qisqartirish mumkin bo‘lgan jumlalarga quyidagilar kiradi: x.k., mln. so‘m, mlrd. so‘m, yoki t., kg., dkl., kbm deb qisqartirib yozish mumkin. Lekin, matnda raqam ko‘rsatilmagan bo‘lsa qisqartirib yozish mumkin emas. Har yili bir yoki

ikki va undan ko‘proq o‘tkaziladigan kongresslar, konferensiyalarni hamda yil ichidagi alohida kvartallarni rim raqamlari bilan yozish kerak. Shuningdek, foiz belgilarini, paragraflarni va tartibli raqamlarni bo‘lishi man etiladi.

Bitiruv malakaviy ishni yozishda iqtisodiy statistika va iqtisodiy matematika usullaridan foydalanish juda katta ahamiyatga ega, chunki, har bir korxona va tashkilotning iqtisodiy faoliyatiga samaradorlikni aniqlashda viloyat va hukumat hujjatlaridagi raqamlarni taqqoslab hisoblashda hamda ular ishini chuqurroq tahlil etishda katta yordam qiladi. Alohida formulalarni qo‘llashda, ularning har biriga va ketma-ketligiga tushuncha berish kerak.

Matnlar mazmunini to‘la ifoda etishda ko‘rilayotgan masalaning mohiyatini navbatma-navbat yozishga rioya qilish kerak. Ish boblari va qismlari (paragraflari) bo‘yicha raqamlarni joylashtirishda mantiqiy bog‘lanish bo‘lishi kerakki, bu raqamli ma’lumotlarni ikkinchisi birinchisini, uchinchisi ikkinchisini to‘ldiradigan bo‘lishi lozim va umumiy yakun bilan takliflar mazmunini qamragan bo‘lishi lozim.

Bitiruv ishi mazmunini ifoda etish murakkabligini hisobga olib, jumlalar tuzilishini va so‘zlarini o‘z o‘rniga bo‘lishligini bir necha marotaba tekshirib chiqish va lozim bo‘lganda to‘g‘rilash kerak. Bu yerda asosan, raqamlarga, vaqtga, nomga, maxsus terminlarga e’tibor berish kerak. Ishning asosiy mazmunini ifoda etishda har bir fikr asosli, qisqa va lo‘nda o‘z ifodasini topgan bo‘lishi kerak.

IX. Bitiruv malakaviy ishini rasmiylashtirish

Bitiruv malakaviy ishini belgilangan talablar darajasida rasmiylashtirilishi ma’lum bir ma’noda to‘plangan materiallarning aniq va haqqoniyligiga ham bog‘liq bo‘ladi. Bitiruv malakaviy ishini yozishda quyidagilarga e’tiborni qaratmoq va ularga rioya etmoq kerak bo‘ladi:

- ma’lumotlar aniq, haqqoniy bo‘lishi va tartibli bayon etilishi;
- ma’lumotlar bayoni mantiqiy izchil, jumla tuzilishlari tushunarli, qisqa va aniq bo‘lishi;
- xulosalar isbotlangan va takliflar asoslangan holda aks ettirilishi;
- ma’lumotlarni bayon etishda mavxumlik va qaytarilishlarga yo‘l qo‘ymaslik;
- umumiy nutqda qo‘llanilmaydigan so‘zlar, atamalar va iboralarni qo‘llamaslik.

Bitiruv malakaviy ishining muqovasi, ya’ni titul varag‘i 3-ilovada ko‘rsatilgan shaklda rasmiylashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrdagi “Oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida “bitiruv malakaviy ishi-oliy ta’lim tashkiloti bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilari tomonidan o‘qishni yakunlash bosqichida bajariladigan ilmiy-nazariy ish bo‘lib, unda bitiruvchining tegishli ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha egallagan bilimi,

koʻnikma va malakasi baholanadi”[4] deb belgilab qoʻyilganligidan kelib chiqib, talablarga asosan, bilimi, koʻnikma va malakasini ifoda etuvchi bitiruv malakaviy ishning asosiy mazmuni matni, qisqa, izchil va ixcham shaklda ifodalanishi kerak. Bitiruv malakaviy ish odatda mundarija, kirish qismi, asosiy qism (malakaviy ish boʻlimlari), xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat boʻlib, talablar asosida oʻrnatilgan tartibda rasmiylashtiriladi.

Mundarijada bitiruv malakaviy ishining tarkibiy qismlari, ya’ni kirish, boblar va ularning nomlanishi, paragraflar va ularning nomlanishi, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati hamda ular bayon etilgan betlarning raqamlari aks ettirilishi lozim.

“Kirish”, “Xulosa va takliflar” boʻlimlaridan tashqari barcha boblar arab sonlari bilan raqamlanadi. Boblarning tartib raqamidan soʻng nuqta (.) qoʻyiladi. Boblarga tegishli paragraflar esa, mos ravishdagi bob raqamidan kelib chiqqan holda raqamlanadi. Aniqroq qilib aytganda, paragraf tartib raqami bir-biridan nuqta bilan ajralib turuvchi bobning tartib raqami hamda paragraf tartib raqamidan iborat boʻladi, ya’ni “1.3.” - bu birinchi bob uchinchi paragrafning tartib raqamidir. (2-ilova).

Bitiruv malakaviy ishlarining betlari ketma-ketlikka amal qilingan holda raqamlanadi. Raqam betning pastki tomonining oʻrtasiga arab soni bilan qoʻyiladi. Muqova, mundarijaga tartib raqamlari qoʻyilmaydi. “Kirish” boʻlimining birinchi beti “3” soni bilan raqamlanadi va shu ketma-ketlikka amal qilib tartib raqami qoʻyila boshlanadi. Bitiruv malakaviy ishida rasmlar va jadvallar, grafiklardan

[4] Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrdagi “Oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori. T.: www.lex.uz

foydalanilgan bo‘lsa, ular aks ettirilgan betlar ham tartib raqamlari ketma-ketligiga qo‘shiladi. Shuningdek, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati yozilgan betlar ham umumiy raqamlanishga qo‘shiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati aks ettirilganda, qat’iy ravishda mualliflar ismi-sharifining bosh xarfini alfavit tartibi bo‘yicha joylashtirishiga amal qilinishi lozim. Bunda quyidagilarga ham e’tibor qaratmoq kerak, ya’ni agar bitiruv malakaviy ishida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlaridan hamda tegishli rasmiy hujjatlardan foydalanilgan bo‘lsa, ularning ro‘yxati mos ravishdagi yuqoridagi ketma-ketlikda aks ettirilishi lozim. So‘ngra, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati yuqorida ta’kidlanganidek, alfavit tartibiga amal qilingan tarzda yoziladi. Bitiruv malakaviy ishini bajarishda foydalanilgan jurnallar va ro‘znomalar ro‘yxati esa, taqvimiy ketma-ketlikka amal qilingan holda ko‘rsatiladi (4-ilova).

Ilovalar bitiruv malakaviy ishining oxiriga tikiladi, ular ketma-ket arab raqami bilan raqamlanadi. Ilovaning yuqorisining o‘ng tomoniga “Ilova” so‘zi uning tartib raqami bilan birgalikda yozib qo‘yilishi kerak. Masalan, “1-ilova”. Bitiruv malakaviy ishini bajarishda qo‘llanilgan illyustratsiyalar (chizmalar, diagrammalar, eskizlar va boshqalar) rasmlar deb nomlanadi va ular arab raqami bilan ketma-ket raqamlanadi. Keltirilgan illyustratsiyalar bitiruv malakaviy ishida ular bayon ettilgan joyda yoki keyingi betda joylashtirilishi kerak.

Tadqiqotlar natijasida to‘plangan raqamli ma’lumotlarni bitiruv malakaviy ishida joylashtirishda jadvallardan foydalanish mumkin va ular mazmunidan kelib chiqqan holda nomlanadi va jadvalning tepasiga

“Jadval” so‘zi unga biriktilgan tartib raqami bilan botiq xarflar orqali sahifaning o‘ng tomoniga yozilishi lozim. Masalan, “1-Jadval”. Jadvalning sarlavhasini ajratib yozish shart emas. Bitiruv malakaviy ishi matnida jadval haqida ma’lumot keltirilgandan keyinroq uni o‘zini joylashtirish kerak. Agar jadval aks ettirilayotganda uning keyingi betga ham ko‘chirilishiga to‘g‘ri kelib qolsa u holda jadvalning ustunlari raqamlanadi hamda bu raqamlanish keyingi betda ham ko‘rsatilib, jadvalning davomi aks ettirilaveriladi.

Aks ettirilgan formulalar, chizma yozuvlar bilan aniq yoziladi, hamda ularning ostida qo‘llanilgan belgilar hamda son darajalari tushuntirish ma’nosiga ko‘ra, ularning formuladagi ketma-ketligiga amal qilingan tarzda ko‘rsatiladi. Formulada qo‘llanilgan har bir belgi va son darajalarining ma’nosi yangi xat boshidan yozilishi kerak[5].

Ishning matnida keltirilgan ma’lumotlarning manbalari tartib raqamiga ko‘ra foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida aks ettiriladi.

Bitiruv malakaviy ishi yozib tugatilgach, qayta o‘qib chiqilishi va bunda quyidagilarga ahamiyat qaratmoq lozim, ya’ni:

- uning qismlarini o‘zaro bog‘lanishi hamda bayon etilish usuli (adabiy tili)ga;
- xatoliklar va qaytarilishlarga yo‘l qo‘yilmaganligiga;
- formulalar, raqamlar, ko‘chirmalar, bibliografik yozuvlarni dastlabki manbalardan to‘g‘ri yozilganligiga.

Qayta o‘qib chiqish natijasida qo‘lyozmani to‘ldirish va maromiga yetkazish zaruriyati aniqlansa, darhol bu amalga oshirilishi lozim.

[5] Shadmanov I.E. Ta'lim yo'nalishlari bitiruvchi kurs talabalari uchun bitiruv malakaviy ishini yozish va rasmiylashtirishga doir uslubiy ko'rsatma. Samarqand. SamISI, 2017. 13-bet.

Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida talaba tomonidan ishlab chiqilgan takliflarni amaliyotda qo‘llanilishi talaba tomonidan e’tiborga olinmog‘i kerak. Mazkur takliflarni korxona amaliyotida qo‘llanilgani yoki kelgusida qo‘llash uchun qabul qilinganligi haqidagi hujjat bo‘lib, ushbu korxona ma’sul shaxsining imzosi va korxona muhri bilan tasdiqlangan ma’lumotnoma hisoblanadi.

X. Bitiruv malakaviy ishiga muallif annotatsiyasini yozish

Annotatsiya – bitiruv malakaviy ishining qisqacha umumlashtirilgan mazmuni bo‘lib, unga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

- bitiruv malakaviy ishining mazmuni aniq va ravon yoritilishi shart;
- keltirilgan dalillar ishonarli, hamda asoslangan bo‘lishi lozim;
- fikrlar qisqa va tushunarli yozilishi kerak.
- Annotatsiyada quyidagilar keltirilgan ketma-ketlikda aks ettirilishi lozim:
- mavzuning dolzarbligi;
- mavzuning o‘rganilganlik darajasi;
- bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari;
- bitiruv malakaviy ishining obyekti;
- ilmiy yangiliklar (agar mavjud bo‘lsa);
- tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati;
- bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi;
- xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi.

Annotatsiya A4 formatdagi oq qog‘ozning ikki tomoniga kompyuterda 1,0 intervalda va 2 betdan iborat hajmda hamda MicrosoftWord matnda va 12 o‘lchamli Times New Roman shriftida yozilishi shart.

Annotatsiya matnini chop ettirishda qog‘ozning 4 ta chetidan ham 20 mm dan qoldirish lozim.

Annotatsiyaning namunaviy tuzilishi 5- ilovada keltirilgan.

XI. Bitiruv malakaviy ishiga taqriz yozish

Belgilangan talablar darajasida yozilgan bitiruv malakaviy ishi tegishli shaxslar tomonidan imzolangach, kafedrada dastlabki himoyadan o‘tadi va Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi oldida himoya etish uchun ruhsat beriladi hamda bu kafedra mudirining imzosi bilan tasdiqlanadi.

Bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar va amaliyot korxonasidan rahbarlik qilgan ma’sul shaxslar taqriz yozadilar.

Bitiruv malakaviy ishi yuzasidan yozilgan taqrizda ishning ilmiy darajasi, uning tarkibiy qismlarini qay darajada bayon etilganligi, keltirilgan takliflarni asoslanganlik darajasi baholanadi, shuningdek yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar ko‘rsatiladi va talabaning mahorati baholanadi (6-ilova).

XII. Bitiruv malakaviy ishni himoya qilish

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bitiruv malakaviy ishi (kompyuterda bajarilgan holda uning elektron varianti bilan birga) talaba tomonidan rahbarga taqdim etiladi. Rahbar, bitiruv malakaviy ish

talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so‘ng, ishni o‘z taqrizi bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. Taqrizda talabaning faolligi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklar va bitiruv malakaviy ishning boshqa ijobiy tomonlari tavsiflanadi. Kafedra mudiri, taqdim etilgan materiallar asosida, bitiruv malakaviy ishni talaba tomonidan Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasida himoya qilishga kiritish haqida qaror qabul qiladi.

Agar kafedra mudiri talabaning bitiruv malakaviy ishini himoyaga kiritish mumkin emas deb hisoblasa, masala kafedra majlisida, rahbar ishtirokida muhokama etiladi. Kafedra majlisining bayonnomasi fakultet dekani tomonidan tasdiq uchun rektorga taqdim etiladi.

Himoyaga kiritilgan bitiruv malakaviy ish taqrizga yuboriladi.

Taqrizchilar tarkibi bitiruvchilarga ish beruvchi soha mutaxassislari safidan tanlanadi. Taqrizchilar sifatida boshqa oliy ta’lim tashkilotning professor va o‘qituvchilar ham jalb etilishi mumkin.

Fakultet dekani malakaviy ishni taqriz bilan himoya uchun Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasiga taqdim etadi.

Bitiruv malakaviy ishni himoya qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrdagi “Oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 836-sinli Qarorida oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining davlat attestatsiyasi to‘g‘risida Nizom bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishlar himoyasi zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida taqdimot (prezentatsiya) shaklida tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

Bitiruv malakaviy ishlar mavzusi, mazmun-mohiyati va xususiyatlariga muvofiq ularning himoyasini tashkil etish va o‘tkazishning boshqa shakllari oliy ta’lim tashkiloti Kengashi tomonidan o‘rnatilishi mumkin.

Talabalar bitiruv malakaviy ishini himoya qilishdan oldin arxiv, axborot-resurs markazi va kafedralarda saqlanayotgan yoki internet resurslaridan foydalanib aynan ko‘chirib olinganligi rasmiy himoyagacha aniqlanib tasdig‘ini topgan bitiruv malakaviy ishlaridan ko‘chirganlik holatlari aniqlansa kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rektor buyrug‘i bilan bekor qilinadi va bitiruvchiga qoniqarsiz baho qo‘yilib, bitiruv malakaviy ishiga biriktirilgan rahbar keyingi uch yil davomida bitiruv malakaviy ishlarga rahbar etib tayinlanmaydi.

Shuningdek, talabalar bitiruv malakaviy ishini himoya qilishdan oldin bitiruv malakaviy ishi ustida ishlayotgan talabalar kasb odob-axloqi qoidalariga rioya etishi (plagiat, ma’lumotlarni soxtalashtirish, shuningdek yolg‘on sitatalar keltirishga yo‘l qo‘ymaslik) lozim.

Ma’lumot o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, plagiat qoidalariga rioya qilishda uning originalligi 60 % dan kam bo‘lmasligi lozim. *Eslatma! (keltirlgan 60 % ko‘rsatkichni aniqlashda uning orginalligini tashkil etish kerak. Bunda o‘z-o‘zidan iqtibos keltirishlar va iqtiboslar inobatga olinmaydi).*

Oliy ta’lim tashkilotda axborot texnologiyalari vositasida taqdimot shaklida bitiruv malakaviy ishlar himoyasini tashkil etish uchun yetarli darajada maxsus jihozlangan auditoriyalar belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishlarni baholash. Bitiruv malakaviy ishi (BMI) ochiq himoya qilingandan so‘ng DAKning yopiq kengashida himoya natijasi muhokama qilinib 100 balli tizimda baholanadi. Bunda bitiruv malakaviy ishining to‘g‘ri rasmiylashtirilgani, rejada belgilangan maqsad va vazifalarga qay darajada erishilgani, mavzuni to‘liq ochib berilganligi, BMI natijalarining nazariy-uslubiy va amaliy ahamiyati, himoya jarayonida qilingan ma’ruzaning sifati, ma’ruza jarayonida tarqatma materiallar, ko‘rgazmali vositalar va taqdimot slaydlaridan qay darajada foydalanilgani, talabaning berilgan savollarga to‘g‘ri javob bergani kabi bir qator mezonlarga ahamiyat beriladi.

BMI mazmuni va uning himoyasi natijalarini baholashda maksimal 100 ball quyidagicha taqsimlanadi

№	Baholash mezonlari	Maksimal ball
1	Bitiruv malakaviy ishining to‘g‘ri rasmiylashtirilishiga	5 ball
2	Bitiruv malakaviy ishi mazmunining belgilangan maqsad va vazifalarga hamda rejaga muvofiq kelishiga	5 ball
3	Har bir bobning mohiyati mantiqan to‘g‘ri ochib berilishiga	10 ball
4	Talaba BMIni tayyorlashda operativ, moliyaviy va statistik hisobotlar ma’lumotlaridan samarali foydalanganiga	10 ball
5	BMI chuqur iqtisodiy tahlilga tayanib amalga oshirilgani va unda iqtisodiy samaradorlikni ifoda etuvchi ko‘rsatkichlar tizimidan unumli foydalanilganiga	10 ball
6	Talaba BMIda mustaqil fikrlash qobiliyatini namoyon etgani, mavzuga oid masalalarga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan asosiy kamchiliklarni ochib berganiga	15 ball

7	Talaba BMIda ijodiy fikrlash qobiliyatini namoyon etgani, kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llari va takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqqaniga	15 ball
8	BMI himoyasi ko‘rgazmali vositalar (slaydlar, tarqatma materiallar) va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirilganiga	5 ball
9	BMI himoyasi bo‘yicha talabaning maruzasi BMIda erishilgan asosiy natijalarni to‘liq qamrab olganligi va ular aniq raqamlar hamda xulosa va takliflar orqali ochib berilganiga	15 ball
10	BMI himoyasi bo‘yicha berilgan savollarga aniq va mazmunli javob berganligiga	10 ball
Jami		**100 ball**

Shuningdek, BMI bajargan talabalar (bitta mavzu bo‘yicha biriktirilgan beshta talabalar) himoya jarayonida indivudal harakatlari, ma’ruzasi, savollarga javob berishi, fikrlashi, qilingan taqdimoti, kreativligi, me’yoriy hujjatlardan foydalana olishi, statistik ma’lumotlarni tahlil qilishiga qarab alohida-alohida baholanadi. Jumladan:

- ***0-59*** ballgacha ***2*** baho;
- ***60-69*** ballgacha ***3*** baho;
- ***70-89*** ballgacha ***4*** baho;
- ***90-100*** ballgacha ***5*** baho.

Shuningdek, himoya jarayonidan so‘ng bitiruv malakaviy ishi (kamida 10 yil) oliy ta’lim tashkilotida saqlanadi. Har xil sabablar bo‘yicha bitiruv malakaviy ishni boshqa tashkilot yoki xodimlarga topshirish zaruriyati mavjud bo‘lgan holda (tadbiq etish, tanlovlar va hakozo), ishdan nusxa olinadi va ularga mazkur nusxa beriladi, ishning asl nusxasi oliy ta’lim tashkilotida qoldiriladi.

Himoyaga tavsiya etiladigan bitiruv malakaviy ishlari quyidagi hujjatlar bilan birgalikda topshiriladi:

1. Bitiruv malakaviy ishiga topshiriq (1-ilova);
2. Bitiruv malakaviy ishining kafedra tomonidan o‘tkazilgan dastlabki himoyasi bayonnomasi (2-ilova);
3. Bitiruv malakaviy ishining annotatsiyasi;
4. Ilmiy rahbarning taqrizi;
5. Tashqi taqriz (malakaviy amaliyot o‘tilgan joydan yoki boshqa subyektdan);
6. BMI natijalarini qo‘llanishi bo‘yicha ma’lumotnoma (1. O‘quv jarayonida (3-ilova); 2. Amaliyotda (4-ilova)).

ILOVALAR

1-ilova

Talaba arizasining namunasi

SamISI “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasining mudiri, i.f.d., professor K.Dj.Mirzayevga
IK-321-guruh talabasi Ablayeva Shoira Turdiboy qizi tomonidan

A R I Z A

Menga bitiruv malakaviy ishini yozishim uchun “Kommunal xizmatlar sifati va uni rivojlantirish yo‘llari” nomli mavzuni biriktirishingizni so‘rayman.

Bitiruv malakaviy ishi Past Darg‘om tuman Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi ma’lumotlari asosida bajariladi.

F.I.Sh. _____ *sana*
(imzo)

Qo‘shimcha ma’lumotlar
Yashash manzili:

Aloqa vositalari: uyali telefon raqami:
uy telefoni raqami:

2-ilova

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi

“Tasdiqlayman”
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi mudiri

_____ K.Dj.Mirzayev
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi majlisi
bayonnomasi № __ 202__ yil “___” ___

Bitiruv malakaviy ishi bo‘yicha SamISI Iqtisodiyot fakulteti 60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi Ik-321guruh talabasi

Ablayeva Shoira Turdiboy qizining

TOPSHIRIQ

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi**: “Kommunal xizmatlar sifati va uni rivojlantirish yo‘llari (Past Darg‘om tumani misolida);**

2. Institut rektorining buyrug‘i bilan bitiruv malakaviy ishi mavzusi tasdiqlangan _____
(sana, buyruq raqami)

3. Bitiruv malakaviy ishi bo‘yicha birlamchi ma’lumotlar: **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining Farmonlari va Qarorlari, Samarqand viloyati statistika boshqarmasi, Past Darg‘om tuman hokimligi, Pastdarg‘om tuman statistika boshqarmasi bo‘limi, mavzuga oid adabiyotlar hamda internet saytlari.**

Bitiruv malakaviy ishi rejasi va bajarilish muddatlari

№	Bitiruv malakaviy ishi bo‘limlari	Bajarilish muddatlari
1	**Kirish**	2025-yil ____ _____ dan 2025-yil ____ ____gacha
2	**I-BOB. Kommunal xizmatlar sifati va uni rejalashtirishning ilmiy-nazariy asoslari**	2025-yil ___ dan _____ _____ 2025-yil ___ gacha _____ ____
3	**II-BOB. Past Darg‘om tumanida kommunal xizmatlar sifati va uni rivojlantirishning holati**	2025-yil ___ dan _____ _____ 2025-yil ___ gacha _____ ____
4	**III-BOB. Pastdarg‘om tumanida kommunal xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish yo‘llari**	2025-yil ___ dan _____ _____ 2025-yil ___ gacha _____ ____
5	**Xulosa**	2025-yil ___ dan _____ _____ 2025-yil ___ gacha _____ ____
6	**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**	2025-yil ___ dan _____ _____ 2025-yil ___ gacha _____ ____

Topshiriq berilgan sana: **15-yanvar 2025 yil**
Ishni topshirish muddati: **1-iyun 2025 yil**

Bitiruv malakaviy ishi ilmiy rahbari: “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d **S.B.Boboqulov**

_____
imzo

Topshiriqni oldim: _____ Ik-321 guruh talabasi **Sh.T.Ablayeva**

imzo

3-ilova

Bitiruv malakaviy ishidagi ayrim mavzularning namunaviy rejalari

M U N D A R I J A:

KIRISH…….. 3

I-BOB. KOMMUNAL XIZMAT SIFATI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI..... 9

1.1-§. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida kommunal xizmat ko‘rsatishning mohiyati va nazariy asoslari……. 9

1.2-§. Kommunal xizmat sifati va uni rivojlantirishning xorij tajribasi hamda undan samarali foydalanish yo‘llari..... 19

II-BOB. PAST DARG‘OM TUMANIDA KOMMUNAL XIZMATLAR SIFATI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING HOLATI..... 26

2.1-§. Tuman ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashda kommunal xizmatlarning ahamiyati va uni baholash……. 26

2.2-§. Past Darg‘om tumanida kommunal xizmatlarning sifati va rivojining holati va tendensiyalari……. 31

III-BOB. PASTDARG‘OM TUMANIDA KOMMUNAL XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH ORQALI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI. 44

3.1-§. Kommunal xizmat ko‘rsatishni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish asosida rivojlantirish……..……... 44

3.2-§. Past Darg‘om tumanida kommunal xizmat ko‘rsatishni sifati va uni rivojini oshirishda raqamli texnologiyalarni o‘rni va tadbiq etish yo‘llari…….. 53

XULOSA……..……. 59

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI……..…….. 62

4-ilova

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.1. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1.1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:O‘zbekiston, 2023. – 82-b.

1.1.2. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.: Adolat, 2020. - 284 b.

1.1.3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni: Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida, 2019 yil 25 dekabr**.**

1.1.4. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risida Qonuni. “Xalq so‘zi”, 1997. 30 avgust soni.

1.1.5. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni: Standartlashtirish to‘g‘risida, 2022 yil 3 noyabr.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

1.2.1. “O‘zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2017 yil 18 apreldagi PQ-2900-sonli Qarori.

1.2.2. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

1.2.3. “2017-2021 yillarda maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018 yil 18 mayda PQ-3730-sonli Qarori.

1.2.4. “2018–2022 yillarda issiqlik ta’minoti tizimini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi 2017 yil 20 aprel PQ-2912-sonli Qarori.

1.2.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28-apreldagi “2022–2026 yillarda Samarqand viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Farmoyish va Qarorlari

1.3.1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi, ko‘p xonadonli uy-joy fondidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi hamda “Kommunxizmat” agentligi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 2017-yil 2-iyundagi 340-sonli Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev asarlari

2.1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligini garovi. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

2.2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajakni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

2.3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.

2.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi gazetasi, 2017 yil 16 yanvar, №11 (6705).

3. Ilmiy monografiya, o‘quv qo‘llanma va darsliklar

3.1. Абдуллаев Ё. Статистиканинг умумий назарияси. – Т.: Фан, 1993. - 240 б.

3.2. Абдураҳмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти (дарслик). – Т.: “Меҳнат”, 2009. - 512 б.

3.3. Arabov N.U. O‘zbekiston Respublikasida mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish samaradorligini oshirish (monografiya). – T.: «Fan va texnologiya», 2017, -270 b.

3.4. Bekker G. The Human Kapital/ G. Bekker. - Chikago, 1964. -79 p.

3.5. Налл С.Г. А дисеқуилибриум модел оф тhе УК лабоур маркет: соме эстиматес усинг ратионал эхпектитионс. Охфорд, 1995. П.54.

3.6. Макконелл К., Брю Э. М.: Экономика, 1991. - Т. 1. - С. 4.

3.7. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика Пер. с англ. 11-го изд. Т.1. – М.: Издательство “Республика”, 1992. -С.399.

3.8. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. /Пер. с англ. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИ ЭМП, 2010.

3.9. Х.М.Маматқулов “Хизмат кўрсатиш соҳасига оид атамалар ва иборалар луғати”-Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010 йил.-126-127 б.

3.10. Қ.Ж.Мирзаев, М.Қ.Пардаев “Хизматлар соҳаси иқтисодиёти”. Ўқув қўлланма.Т.:“IQTISOD-MOLIYA”, 2014 йил 186 б.

3.11. V.U.Yodgorov, D.Ya.Butunov Uy-joy kommunal xo‘jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi. Darslik. Toshkent. 2012 yil. 38 b.

3.12. Q.X.Abdurahmonov Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. / I.f.d., prof. tahriri ostida. – T.: Iqtisodiyot, 2013. -418 b.

3.13. Холмуродов М.Х. Уй-жой коммунал хўжалиги ва сервис асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент, ТАҚИ, 2010й.

3.14. Суюнов Д. Хизмат кўрсатиш корхоналарида корпоратив маданиятни шакллантириш. Бозор, Пул ва Кредит. 03/ 2012.-50 б.

4. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferati

4.1. Умаров О.С. Коммунал тўловлари жараёнларини ахборот тизимлари асосида самарали ташкил этишнинг тадқиқоти. Иқтисодиёт

фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати – Т.: ТДИУ Экономики. 2018. -С.24.

4.2. Артыкова Д.А. Проблемы достижения равновесия на рынке труда в условиях углубления рыночных реформ. Автореферат дис. док. экон. наук. -Тошкент: АНРУз Институт Экономики. 2006. -С.44.

4.3. Дудников С.В. Эффективност активной политики содействия занятости населения мегаполиса. // Дисс. ...д-ра экон. наук. – М.: РГБ, 2006. - С. 195.

4.4. Насимов Д.А. Олий таълим муассасалари битирувчиларини ишга жойлаштириш тизимини такомиллаштириш (Самарқанд вилояти мисолида) // Дисс. И.ф.н. –Т.: ЎзРФА Иқтисодиёт институти, 2011. 14-15 б.

4.5. Холмўминов Ш.Р. Қишлоқ меҳнат бозорининг шаклланиши ва ривожланишини моделлаштириш. Иқтисод фанлари докторлик диссертацияси. – Т.: ТДИУ. 1998. - 285 б.

4.6. Киян Л. «Рынок труда: методология исследования и особенности формирования в современной России». - Автореферат диссертации на соискание ученой степени док. экон. наук. - Воронеж: 1998. –С. 32.

5. Ilmiy maqola va konferensiya tezislari

5.15. Баринова М. Дания в ракурсе социалной политики // Человек и труд. - 2001.- №8. - С. 25.

5.16. Бейсенов С, Мухамбетов Т. Инфраструктура рынка труда // Человек и труд. - 1999.-№1. -С. 25-28.

5.17. Болтабоева Л. Демографик муҳитнинг иш билан бандлик даражасига таъсири. // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. – Т.: 2000. №8. 42-43 б.

5.18. Валнева Л.В., Маркевич И.В. Становление российского рынка труда // Социально-политический журнал. - 1997. - ЖВ2 5. - С. 138 - 142.

5.19. Геворкян А. Вопросы регулирования временной трудовой миграции // Вопросы экономики. – М.: 2007. №9. - С.147-149.

5.20. Isroilova D. Mehnat bozorining shakllanish tendensiyalari. // O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2003. №10. 60-61 b.

5.21. Кабалина В., Козина И. Посредничество в трудоустройстве: сравнение эффективности государственных и частных структур // Человек и труд. - 2000. - №12.

5.22. Костюнина Г.М. Социалная политика в области труда (опыт Республики Корея) // Труд за рубежом. 2000. №4. -С. 29-30.

5.23. Кристоффersен Х. Социалная политика в Дании. // Проблемы теории и практики управление. - 1997.- №4.-К. 25.

5.24. Лебедева Л. Опыт США: государственная политика в социально-трудовой сфере. // Проблемы теории и практики управление. - 2002. №5. – С. 39.

5.25. Mamataliev D. Infratuzilmalar yangi malakali ishchilar talab etmoqda // O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – T.: 2002. №9. 53-b.

5.26. Мурадов Ш.Н. Государственное регулирование рынка труда // Восемнадцатые международные Плехановские чтения. – М.: 2005.- С.215-216.

5.27. Raximova D.N. Ijtimoiy totuvlik va uch tomonlama hamkorlik // Iqtisod va hisobot. - T.: 1997. №5. 64-65 b.

5.28. Садовая Е.С. Социалные риски в трудовой сфере: прогноз развития ситуации // Народонаселение. 2010. № 2.

5.29. Садовая Е.С. Механизмы регулирования социально-трудовых отношений на современном этапе: опыт развитых стран и России // Проблемы прогнозирования. 2010. № 5.

5.30. Сафонов А.Л. Новые инструменты государственной нолитики занятости // Общество и экономика. - 1997. -№ 7 - 8. - С. 15-32.

5.31. Соболевская А. А., Попов А. К. Новые формы труда в современном экономике // Труд за рубежом. - 2007. -№3.-С.17.

5.32. Служба занятости - служба государственная // Человек и труд. - 1995. - X2 6.-К.9-16.

5.33. Стратегический план Министерства труда США на финансовый период 2006-2011 гг. (У.С. Департмент оф Лаборъс Стратегик План фор Фискал Йеарс 2006-2011) (Неофиц. пер. Ред. проф. пер. М. Байгереев) // Человек и труд. 2009. № 5. С. 1-2.

5.34. Тарасова Н. Трудовые отношения в условиях глобализации и технологической революции (опыт стран запада) //Общество и экономика. – М.: 2000. №1. -С. 67.

5.35. Финляндия: центры экономики и занятости – катализаторы развития предпринимателства и рынка труда. // Человек и труд. – 2003. - №1. –К.31.

6. Internet saytlari

6.1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali

6.2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

6.3. https://innovation.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi

6.4. www.catback.ru - iqtisodiyot bo‘yicha ilmiy maqolalar va o‘quv materiallari sayti

6.5. www.mail.tdiu.uz – TDIU elektron kutubxonasi

6.6. www.worldeconomics.com – Jahon iqtisodiyoti sayti

6.7. www.tradingeconomics.com – Jahon savdo iqtisodiyoti sayti

6.8. www.ereport.ru – Jahon iqtisodiyoti bo‘yicha umumiy ma’lumotlar bazasi

6.9. www.ziyonet.uz – ta’lim portali

5-ilova

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SEVIS INSTITUTI

Iqtisodiyot fakulteti
Kafedra: “Raqamli iqtisodiyot”

O‘quv yili: 2024-2025

Talaba: Sh.T.Ablayeva
Ilmiy rahbar: i.f.f.d. dotsent S.B.Boboqulov
Mutaxassislik: 60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI ANNOTATSIYASI

“Kommunal xizmatlar sifati va uni rivojlantirish yo‘llari (Past Darg‘om tumani misolida)”

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxotlarning pirovard natijasi sifatida vujudga kelayotgan yangi iqtisodiy munosabatlar xizmat ko‘rsatish sohasini yanada rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratdi. Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy ustuvor yo‘nalishlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini yuqori sur’atlarda rivojlantirishni ta’minlamoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyot tarmoqlarini tubdan isloh qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga qaratilgan islohotlar natijasida milliy iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Jumladan, “...xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o‘rni va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish”[6] ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifalardan kelib chiqib kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini isloh qilish, xodimlar malakasini oshirish hamda kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida erkin raqobat muhitini shakllantirishni talab qiladi.

Hozirgi davrda mamlakatimiz kommunal xizmat ko‘rsatish sohasidagi xizmatlarni tashkil etish, uni samarali ishlashini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, kommunal xizmatlarni turli ishlab chiqarish tarmoqlar va xizmatlar tarkibidagiligi xizmat ko‘rsatish jarayonini sezilarli sifatini sekinlatmoqda. Bizningcha, ushbu muammolarni to‘g‘ri va samarali ishlashini hamda xizmatlar sifatini yuksaltirish uchun kommunal xizmat ko‘rsatish tizimi tasnifini

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi». – www.lex.uz

takomillashtirish, kommunal xizmatlarni bir paketga jamlash, mavjud me'yorlar va ko‘rsatkichlarni qayta takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shuningdek, mamlakatimiz aholisining turmush darajasini oshirish maqsadida mamlakatimizda ko‘plab ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan mamlakatimiz aholisining yashash sharoiti yaxshilanganligi, aholining obod va zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlangani, odamlar istiqomat qiladigan muhitni rivojlantirilishi hamda obodonlashtirilishi, zarur infratuzilmaning mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi hamda mamlakatimizning ko‘p qavatli uylarida istiqomat qiladigan aholisining issiqlik, elektr-energiyasi hamda gaz ta'minotiga katta e'tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida "Qishloq joylarda 15 mingta arzon uy joy, 415 kilometrlik suv ta'minoti quvurlari, 316 kilometrlik gaz ta'minoti quvurlari va 219 kilometrlik ichki yo‘llar qurish rejalashtirilgan"[7]. Mamlakatimizda aholi moddiy va madaniy turmush saviyasining izchil yaxshilanib borayotganligi, iqtisodiyotimizning jadal va mutanosib rivojlanib borayotgani aholi hayot darajasi va sifatini izchil oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Bunday izchil yaxshilanishning ijtimoiy mezonlaridan biri shaharlar va boshqa aholi punktlarini markazlashgan issiqlik, suv, gaz va xokazolar bilan ta'minlanishi hisoblanadi. Chunki, insonning bo‘sh vaqti salomatligi, kayfiyati, mehnat faolligi yashash sharoitlaridagi qulayliklar qanday yo‘lga qo‘yilganligiga bog‘liq. Albatta, uy-joy kommunal xo‘jaligining rivojlanishi bilan undan foydalanish faoliyati kengayib, inson qobiliyatlarining ortishi uchun sharoitlar yaratiladi.

Yuqoridagilar bois, kommunal xizmat ko‘rsatish sifatini takomillashuvi xalq farovonligini oshirish yuzasidan muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifa sifatida belgilangan. Bu vazifaning samarali bajarilishi moddiy ne'matlarni pirovard iste'molchilarga yetkazish, ya'ni moddiy ne'matlar istemoli jarayoniga xizmat ko‘rsatish, xodimlarning mehnat va dam olishi oqilona uyg‘unlashuvini mustahkamlaydi.

Bu masala alohida mintaqalar darajasida yanada muhim amaliy ahamiyatga ega chunonchi, aholisi, mintaqaviy demografik jarayonlar, xo‘jalik tuzilmasi va undagi islohotlar, rivojlanish sur'ati, salohiyati bilan ajralib turuvchi Samarqand viloyatida kommunal xizmat ko‘rsatish sohalarini tashkil etish va boshqarish munosabatlarini tadqiq etish, bugungi kunda viloyatda mavjud bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechimida o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Muammoni o‘rganlik darajasi. Kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyatida boshqarish jarayoni samaradorligini takomillashtirish, sohada bozor munosabatlarini chuqurlashtirish hamda soha korxonalarida yuzaga keluvchi risklarni boshqarish borasida xorijiy davlatlarda bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan M.P.Jonson, P.Osborn, M.S.Jensen, M.Leytch, P.Smets, P. Van Lindert, S.Ganapati, S.Uiler, J.Plammer,

[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida". Xalq so‘zi. 2017 yil 8 fevral, №28,(6722)

S.Xeymans, Ye.Ostrom, R.Bodou[8] kabi olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi[3]. Ushbu olimlarning tadqiqot ishlarida uy-joy kommunal sohasining rivojlanish xususiyatlari, uy-joy fondi va uni boshqarish, sohada bozor munosabatlarining shakllanishi, uy-joy kommunal sohasida boshqaruv jarayonlarini tashkil etish va uni modellashtirish masalalari muayyan darajada nazariy va uslubiy jihatdan o‘rganilgan.

Kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatini boshqarish, tizim faoliyatini takomillashtirishda davlat bilan munosabatlar, xizmatlar turlari bo‘yicha korxonalar boshqaruv jarayonlarini modellashtirish MDH olimlaridan Ye.V.Zaxarova, A.V.Abdullina, Ye.N.Jilsov, V.N.Kazakov, T.K.Rautkauskas, R.J.Sirajdinov, V.Ye.Komarova, V.Z.Chernyak, Yu.F.Simionova, R.F.Gataullin, Ye.A.Kameneva, O.B.Skripnik, I.V.Sorgutov, A.N.Chernыshov, Ye.S.Shomina, A.M.Goncharov, A.V.Lisix, A.M.Platonov, S.A.Yegorichev, S.A.Yevseeva, L.N.Tepman, V.V.Buzirev, A.F.Borisovlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan[9]. Ushbu tadqiqotlarda olimlar uy-joy kommunal sohasida samarali boshqaruv tizimlari hamda sohada jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari shakllanishini nazariy hamda amaliy jihatdan baholashga e’tibor qaratishgan.

Mamlakatimizda kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish, sohada bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, xizmatlar sifatini boshqarish hamda boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish masalalari R.I.Nurimbetov, S.S.G‘ulomov, V.U.Yodgorov, T.A.Xasanov, S.K.Salaev, I.X.Davletov, A.S.Sultanov, F.Ergashev, D.Raximova va G.Xonkeldieva, A.Bektemirov, S.B.Boboqulov kabi[10] mamlakatimiz olimlarining tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

---

[8] Johnson, M.P. (2012), In: Privett, N.A., editor. International Series in Operations Research and Management Science. Operations Management in Community-Based Nonprofit Organizations, Department of Public Policy and Public Affairs University of Massachusetts Boston, Boston, MA 02125-3393, USA; Osborne, P. (2005), In: Stephen, O.P., Brown, K., editors. Managing Change and Innovation in Public Service Organizations. New York, NY: Madison Ave.; Jensen M.C., Meckling W.H.Theory of the Firm. Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure. Journal of Financial Economics, 1976, vol. 3, no. 4, pp. 305–360.; Leitch, M. «The Risk Management Gap», Board Leadership, vol. 2017, no. 154, pp. 1-3. doi:10.1002/bl.30088.; Peer Smets & Paul van Lindert (2016) Sustainable housing and the urban poor, International Journal of Urban Sustainable Development, 8:1, 1-9, DOI: 10.1080/19463138.2016.1168825; Ganapati S.2014. Housing cooperatives in the developing world. In: Bredenoord J, van Lindert P, Smets P, editors. Affordable housing in the urban global south: seeking sustainable solutions. London: Routledge/Earthscan; p. 102-116.;Wheeler S.2003. Planning sustainable and livable cities. In: LeGates TT, Stout F, editors. The city reader. London, NewYork: Routledge.

[9] Захарова Ye.B. Жилищно-коммунальные услуги – как общественное благо: особенности реализации в Российской экономике. Автореферат на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – М.: 2010 г.

–с.34.; Абдуллина А.Р. Жилищно-коммунальное хозяйство в России / А.Р.Абдуллина, И.А.Владимиров // Челябинск: «Два комсомольца», 2011. – 147 с.; Жильцов Е.Н., Казаков В.Н. Экономика социальных отраслей сферы услуг. – М.: МГУ; ТЕИС, 2007. – 274 с.; Руткаускас Т.К. Формирование и развитие рыночных отношенийв жилищно-коммунальном хозяйстве: теория, методология и практика. Автореферат на соискание ученой степени доктора экономических наук. –Екатеринбург: 2006 г. – 35 с.

[10] Нуримбетов Р.И., Султанов А.С. Уй-жой фондини бошқаришнинг хорижий тажрибаларидан республикамизда фойдаланиш истиқболлари // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. – 2019. Урганч: №3. -15-23 б.; Гулямов С.С., Жумаев Н.Х., Рахмонов Д.А., Ташходжаев М.М. Ижтимоий соҳада инвестицияларнинг самарадорлиги. Монография. –Т: IQTISODIYOT, 2019.; Ёдгаров В.У., Бутунов Д.Я. Уй-жой коммунал хўжалиги ва бошқаруви.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi mamlakatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida Past Darg‘om tumanida kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyati sifatini yuksaltirish amaliyoti, erishilgan ijobiy jihatlar, mavjud muammolarni majmuaviy tadqiq etish, ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

– **Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.** Bitiruv ishining mazmuni quyidagi ilmiy-amaliy vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan:

– raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida kommunal xizmat ko‘rsatishning mohiyati va nazariy asoslari;

– kommunal xizmat sifati va uni rivojlantirishning xorij tajribasi hamda undan samarali foydalanish yo‘llari;

– tuman ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashda kommunal xizmatlarning ahamiyati va uni baholash;

– Pastdarg‘om tumanida kommunal xizmatlarning sifati va rivojining holati va tendensiyalari;

– kommunal xizmat ko‘rsatishni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish asosida rivojlantirish;

– Pastdarg‘om tumanida kommunal xizmat ko‘rsatishni sifati va uni rivojinini oshirishda raqamli texnologiyalarni o‘rni va tadbiq etish yo‘llarini o‘rganish vazifasi belgilab olingan.

Tadqiqot obyekti. Tadqiqot obyekti sifatida Past Darg‘om tumanida faoliyat yuritayotgan kommunal xizmatlar tizimi, uning tarkibiy tuzilmalari va boshqaruv amaliyoti tanlangan.

Tadqiqot predmeti Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida Past Darg‘om tumanida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, shu jumladan, uni iqtisodiyoti tarkibida kommunal xizmat ko‘rsatish sohalarining boshqa sektorlar bilan aloqadorligi hamda tumanda kommunal xizmat ko‘rsatish sohalarini tashkil etish va boshqarish masalalar majmui tadqiqot predmeti sifatida belgilandi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy yangiligi va ahamiyati. quyidagilardan iborat:

– kommunal sohasida boshqarish jarayonlarini soddalashtirish imkonini beruvchi uy-joy kommunal xizmatlari bozori, xizmatlar turlari hamda sohada boshqaruv faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarning takomillashtirilgan tasnifi ishlab chiqilgan;

– kommunal xo‘jaligi faoliyati samaradorligi va sifatini baholash ko‘rsatkichlari tizimlashtirilgan holda hududlardagi uy-joy kommunal sohasining joriy boshqaruv holatini to‘liq aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar tizimi uslubiy jihatlari asoslangan;

– soha korxonalari samaradorligiga hamda taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini boshqarish jarayoniga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, ushbuomillar asosida uy-joy kommunal sohasining rivojlanishi SWOT tahlili amalga oshirilgan hamda o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari asosida hududlarning uy-joy kommunal xizmatlari sifati bo‘yicha integral ko‘rsatkichni aniqlash uslubiyoti ishlab chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta asosiy bob, har bir bobda ikkitadan paragraflar, xulosa, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Tadqiqot hajmi 70 betni tashkil etadi.

Ilmiy rahbar _____i.f.f.d., dotsent S.B.Boboqulov

Talaba _____ Sh.T.Ablayeva

6-ilova

Bitiruv malakaviy ishiga taqrizning taxminiy tarkibi

1. Mavzuning dolzarbligi.
2. Nazariy savollarning chuqur yoritilganligi.
3. Ishning ilmiy darajasi.
4. Foydalanilgan amaliy ma’lumotlarning aniqligi va xaqqoniyligi.
5. Zamonaviy izlanish usullaridan foydalanilganligi.
6. O‘rganilgan savollar tahlilining chuqurligi.
7. Ayrim xulosalarning to‘g‘riligi.
8. Takliflarning amaliy ahamiyati.
9. Amaliyotga joriy etilishi mumkin bo‘lgan takliflar ro‘yxati va ularning iqtisodiy samaradorligi.
10. Yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarning mavjudligi.
11. Bitiruv malakaviy ishining umumiy bahosi.
12. Taqrizchining ismi-sharifi, ilmiy darajasi va unvoni.
13. Taqrizchining imzosi.
14. Taqriz yozilgan sana.

7-ilova

“TASDIQLAYMAN”
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor
_____ K.Dj.Mirzayev
“15” may 2025 yil

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi yig‘ilishining 10-sonli majlis
BAYONNOMASI

2025 yil 15-may Samarqand shahri

Raislik qiluvchi: – K.Dj.Mirzayev – “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi mudiri professor, i.f.d.

Qatnashdilar: – Kafedra a’zolari. i.f.n., prof. Shavqiyev E, i.f.f.d., prof. v.b. S.A.isxakova, i.f.f.d., dots. Boboqulov S.B., i.f.f.d., dots. Artikova Sh.I., i.f.f.d., dots. v.b. Xalimov Sh.X., i.f.f.d., dots. v.b. Xayitov J.X., kat. o‘qit. Djumaev A.X., kat. o‘qit. Ulug‘murodov F.F., ass. A.K.To‘rayev, ass. Umirzoqova M.I., ass.-st. Usmonov M.D., ass.-st. Amriyeva Sh.Sh., ass.-st. Musurmonova M.S. va cabinet mudiri Abduxaliqova F.A.

KUN TARTIBI:

1. Har xil masalalar.
1.1. Bitiruv malakaviy ishining dastlabki himoyasi

I. Eshitildi. Kafedra mudiri, i.f.d., professor K.Dj.Mirzayev so‘zga chiqdi. Ma’lumki, 2025-yil 10-iyundan boshlab bitiruv malakaviy ishlari himoyasi boshlanadi. Yil davomida bitiruv ishlar mavzulari, ilmiy rahbarlar tasdiqlanib, talabalar tomonidan izlanishlar olib borildi.

Dastlabki himoyaning tartibi bilan tanishtirildi.

Shundan so‘ng, i.f.f.d., dotsent S.B.Boboqulov rahbarligida 4-kurs kunduzgi ta’lim shakli talabasi Ablayeva Shoira Turdiboy qizining “Kommunal xizmatlar sifati va uni rivojlantirish yo‘llari (Past Darg‘om tumani misolida)” mavzusida malakaviy bitiruv ishining mazmuni bo‘yicha ma’ruzasi tinglandi.

Kafedra a’zolari talabaning ishi bo‘yicha savollar berdi. Savollarga to‘liq javoblar berildi va kafedra a’zolari Ablayeva Shoira Turdiboy qizining “Kommunal xizmatlar sifati va uni rivojlantirish yo‘llari (Past Darg‘om tumani misolida)” mavzusidagi ishi yuzasidan:

QAROR QILINDI:

1. Ablayeva Shoira Turdiboy qizining “Kommunal xizmatlar sifati va uni rivojlantirish yo‘llari (Past Darg‘om tumani misolida)” mavzusidagi bitiruv ishi kafedra muhokamasidan o‘tgan deb hisoblansin.

2. Ablayeva Shoira Turdiboy qizining “Kommunal xizmatlar sifati va uni rivojlantirish yo‘llari (Past Darg‘om tumani misolida)” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi himoya uchun YaDAKga tavsiya etilsin.

Majlis kotibi: **Abduxaliqova F.A.**

8-ilova

“Tasdiqlayman”	**“Tasdiqlayman”**
“Innovascience” MCHJ direktori	**Samarqand iqtisodiyot va servis institutining o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, i.f.n., professor**
M.H.Razoqova _____	**_____ T.S.Sharipov**
“____” _____ 202__ yil	**“____”_____ 202 __ yil**

O‘tkazilgan tadqiqot tavsiyalarining amaliyotga tadbiq etilishi (qo‘llanishi) to‘g‘risida

D A L O L A T N O M A

Biz quyidagini imzolagan tashkilot Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rahbari, prof. M.E.Po‘latov.

Quyida imzo chekuvchilar “Innovascience” MCHJ direktori M.H.Razoqova bir tomondan va ikkinchi tomondan “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d S.B.Boboqulov va talaba Sh.T.Ablayeva 2025 yil 5-fevralda berilgan buyurtmaga muvofiq o‘tkazilgan tadqiqot natijalarining qo‘llanilishi haqida mazkur dalolatnomani tuzdik.

Boshlangan: “___” _____ 20__ y.

Tadbiq etilgan: “___” _____ 20__ y.

Tadbiq etilgan obyekt nomi: Samarqand shahar “Innovascience” MCHJ

Ishni tadbiq etishdan quyidagi asosiy natijalar olindi: “Kommunal xizmat sifati va uni rivojlantirish (Past Darg‘om tumani)” bitiruv malakaviy ishi mavzusi doirasida yo‘llarini topish.

“kommunal xizmat” va “kommunal xo‘jalik” tushunchasining mohiyatini ochishda mavjud yondashuvlarga qo‘shimcha ravishda iste’molchi nuqtai nazaridan yondashish zarurligi asoslab berilgan;

uy-joy kommunal xo‘jaligini isloh qilishda moloiyaviy manbalarini rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy va ma’muriy tavsiyalar berish hamda Pastdarg‘om tuman kommunal xo‘jaligi va shaharni obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan yangi uy-joylarni boshqarish tizimini shakllantirish;

kommunal infratuzilma obektlarining energiya samaradorligini oshirish va modernizatsiya qilish, “aqlli turar-joy”, “xavfsiz turar-joy” loyihasi bo‘yicha takliflar ishlab chiqilib amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha tafsiyalar berildi;

Samarqand viloyati misolidan foydalanib, rivojlanishning boshlang‘ich bosqichida mintaqada uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish klasterini tashkil etish uchun model taklif qilindi.

Bajarilgan bitiruv malakaviy ishining topshirilishi va qabul qilinish tartibi: “Kommunal xizmatlar sifati va uni rivojlantirish (Past Darg‘om tumani)” yo‘llarini topish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berish hamda rasmiylashtirish.

Ushbu takliflar konsalting korxona rahbarlari tomonidan to‘liq qo‘llanilsa, amaliyotga joriy etilgan tavsiyalar hisobidan, korxonaning kommunal xizmatlardan foydalanishda qayta tiklanmas resurslarni tejash, kommunal xizmatlarni boshqarish va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin bo‘ladi

Kafedra mudiri: _____ **K.Dj.Mirzayev**

Ilmiy rahbar: _____ **S.B.Boboqulov**

9-ilova

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“Iqtisodiyot” fakulteti

“Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi

Qo‘lyozma huquqida

UDK _____

“Himoyaga tavsiya etildi”
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, prof., i.f.d. K.Dj.Mirzayev _____
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi majlisi bayonnomasi №____ 2025 yil“____”_____

60310100 – “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi

IK-321 guruh talabasi Ablayeva Shoira Turdiboy qizining “Kommunal xizmatlar sifati va uni rivojlantirish yo‘llari (Past Darg‘om tumani)” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: dotsent, i.f.f.d. S.B.Boboqulov

Samarqand-2025

JADVAL, RASM, FORMULALARNI AKS ETTIRILISHI BA MATNLARGA HAVOLALAR BERISH

Bitiruv malakaviy ishida jadvallarni aks ettirilishi

2.1-Jadval

Kommunal xizmatlarni baholash mezonlari[11]

№	Mezon nomi	Baholash ko‘rsatkichi
1	Xizmat sifati	Yetkazib berilayotgan xizmatlarning uzluksizligi va ishonchliligi
2	Narx siyosati	Xizmatlar narxining aholining to‘lov qobiliyatiga muvofiqligi
3	Qamrov darajasi	Aholining qanchalik qismi ushbu xizmatlardan foydalanayotgani
4	Texnik holati	Infratuzilma obyektlarining zamonaviyligi va nosozlik holatlarining tezkor bartaraf etilishi
5	Aholining qoniqish darajasi	Foydalanuvchilarning fikr-mulohazalari asosida
6	Ekologik ta’siri	Chiqindilarni qayta ishlash va atrof-muhitga ta’sir darajasi

2.2-Jadval

Tumanlar kesimida kvartira (uy)larning ichimlik suvi bilan ta’minlanganligi

(jami kvartira (uy)lar soniga nisbatan, % da)[12]


T/r	Hududlar	*2020 y.*	*2021 y.*	*2022 y.*	*2023 y*	*2024 y*
	Samarqand viloyati	**55,7**	**57,3**	**59,6**	**58,7**	**63,7**
1	Samarqand sh.	97,0	95,3	91,5	90,6	99,5
2	Kattaqo‘rg'on sh.	78,2	81,2	82,0	81,3	73,5
	tumanlar:					
3	Bulung'ur	31,0	32,3	33,0	32,6	63,6
4	Jomboy	52,7	56,3	65,4	63,7	51,5
5	Ishtixon	36,0	42,8	43,2	42,7	40,9
6	Kattaqo‘rg'on	18,4	19,1	21,6	21,3	26,5
7	Narpay	27,6	29,6	49,6	49,1	51,3
8	Nurobod	34,5	44,3	51,4	40,2	43,1

[11] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan


[12] https://samstat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2

9	Oqdaryo	35,2	34,6	34,3	33,9	34,6
10	Payariq	50,7	50,8	50,7	50,0	54,6
11	Past Darg'om	69,0	70,1	72,2	71,1	62,6
12	Paxtachi	61,5	63,6	75,6	76,4	84,1
13	Samarqand	52,7	53,6	54,9	55,7	57,2
14	Toyloq	43,8	44,4	44,3	44,5	77,3
15	Urgut	61,2	61,7	61,9	61,9	62,3
16	Qo‘shrabot	31,1	44,2	44,7	43,4	67,0

Bitiruv malakaviy ishida rasmlarni aks ettirilishi



3.1-rasm. Kommunal xizmatlarni raqamlashtirish modeli[13]



3.2-rasm. Qurilish tashkilotlarining asosiy fondlarining mavjudligi va eskirishi[14]

[13] Muallif tadqqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

Bitiruv malakaviy ishida formulalarni aks ettirilishi

$$P^{(n)}(t)=P^{(p)}(t) * (1+h)^t \quad (2.1);$$

Bu yerda:
$P^{(p)}(t)$– t- vaqt kutilayotgan real sof daromad;
$P^{(n)}(t)$ – t- vaqt kutilayotgan nominal sof daromad;
h – o‘sha davrdagi inflyasiya sur’ati.

Bitiruv malakaviy ishida matndagi manbalarga hovolalar

Xususan, O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyot tarmoqlarini tubdan isloh qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga qaratilgan islohotlar natijasida milliy iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Jumladan, “...xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o‘rni va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish”[15] ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifalardan kelib chiqib kommunal xizmat ko‘rsatish sohasini isloh qilish, xodimlar malakasini oshirish hamda kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida erkin raqobat muhitini shakllantirishni talab qiladi.

[14] Muallif tadqqiqotlari asosida ishlab chiqilgan
[15] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoyev tamonidan qabul qilingan «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi». – www.lex.uz

Rahbar mulohazasi, ichki va tashqi taqrizlarni bitiruv malakaviy ishi uchun shakllantirish uchun

NAMUNALAR

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti 60310100– “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” ta’lim yo‘nalishi IK-321 guruh talabasi Ablayeva Shoira Turdiboy qizining “Kommunal xizmatlar sifati va uni rivojlantirish yo‘llari (Past Darg‘om tumani misolida)” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

MULOHAZASI

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning hozirgi bosqichi milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish bilan bog‘liq uning sifatiy parametrlarini bosqichma-bosqich yaxshilash va takomillashtirishga yo‘naltirilgan hisoblanadi. Mamlakatimizda tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirishning muhim yo‘nalishi xizmat ko‘rsatish sohasini yanada rivojlantirish va soha korxonalarining samaradorligini oshirish hisoblanadi. Jahonning taraqqiy etgan mamlakatlarida globallashuv jarayoni hamda uning xizmatlar bozori shakllanishi va rivojlanishiga bo‘lgan ta’siridan kelib chiqqan holda qator muammolarning ilmiy yechimini ta’minlash yuzasidan maqsadli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, xizmatlar bozori egiluvchanligi, institutsionallashuvi va ijtimoiylashuvining kuchayishi, xizmatlar bozoridagi raqobat, yuqori ta’lim va kasbkorlik darajasini talab qiluvchi yangi faoliyat turlarining rivojlanishi, nostandart bandlik shakllarining kengayishi, ish vaqti yangi modellaridan foydalanish, ishlovchilar daromadlarining ko‘payishi, milliy mehnat bozori hamda transmilliy kompaniyalar va Xalqaro Mehnat Tashkiloti o‘zaro faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilgan.

Aynan shular va boshqa holatlar tadqiqotchi tomonidan tanlangan mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Ishning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslangan va xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi keltirilgan hamda uning o‘rganilganlik darajasi, maqsadi, vazifalari, ilmiy yangiliklari va ilmiy-amaliy ahamiyati aniqlangan.

Bitiruv malakviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalardan iborat bo‘lib, dissertatsiya ishining kirish qismida tadqiq qilinayotgan muammoning dolzarbligi asoslangan va uning o‘rganilganlik darajasi, maqsadi, vazifalari va ilmiy-amaliy ahamiyati aniqlangan.

«Kommunal xizmat sifati va uni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari» nomli birinchi bobda raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida kommunal xizmat ko‘rsatishning mohiyati va nazariy asoslari hamda kommunal xizmat sifati va uni rivojlantirishning xorij tajribasi hamda undan samarali foydalanish yo‘llari tadqiq etilgan.

«Past Darg‘om tumanida kommunal xizmatlar sifati va uni rivojlantirishning holati» nomli ikkinchi bobda tuman ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashda kommunal xizmatlarning ahamiyati va uni baholash va Pastdarg‘om tumanida kommunal xizmatlarning sifati va rivojining holati va tendensiyalari aniqlandi.

«Past Darg‘om tumanida kommunal xizmatlar sifatini oshirish orqali rivojlantirish yo‘llari» nomli uchinchi bobda kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish hamda Past Darg‘om tumanida kommunal xizmat ko‘rsatishni sifati va uni rivojinini oshirishda raqamli texnologiyalarni o‘rni va tadbiq etish yo‘llari ilmiy va amaliy jihatdan atroflicha tadqiq etilib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishida olingan natijalar ilmiy-amaliy jihatdan muhim hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiliklari to‘liq ishning mazmunidan kelib chiqqan holda, ilmiy-nazariy, ilmiy-uslubiy, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot ishining yo‘l qo‘yilgan ayrim kamchiliklar bitiruv malakaviy ishining ilmiy saviyasi va amaliy ahamiyatini pasaytirmaydi.

Ishning rejasi mantiqan uning mavzusini ochib bera olgan, bitiruv malakaviy ishi muallif tomonidan yuqori ilmiy saviyada bajarilgan hamda to‘liq tugallangan ilmiy ish bo‘lib olingan natijalar bo‘yicha xulosa va tavsiyalar ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shularni hisobga olsak, talaba Ablayeva Shoira Turdiboy qizi tomonidan “Kommunal xizmatlar sifati va uni rivojlantirish yo‘llari (Past Darg‘om tumani)” mavzusidagi bakalavr darajasini olish uchun yozilgan bitiruv malakaviy ishining ishining nazariy va ilmiy ahamiyga molik bo‘lib, ishning mazmuni va mohiyati Davlat Attestasiya Hay’ati tomonidan qo‘yilgan talablarga javob beradi va uning muallifi Ablayeva Shoira Turdiboy qizi 60310100-“Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) yo‘nalishi bo‘yicha yozilgan BMIni DAKda himoya qilishga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar: **i.f.f.d., dotsent S.B.Boboqulov**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti 60310100– “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” ta’lim yo‘nalishi IK-321 guruh bitiruvchisi Ablayeva Shoira Turdiboy qizining “Kommunal xizmatlar sifati va uni rivojlantirish yo‘llari (Past Darg‘om tumani misolida)” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning hozirgi bosqichi milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish bilan bog‘liq uning sifatiy parametrlarini bosqichma-bosqich yaxshilash va takomillashtirishga yo‘naltirilgan hisoblanadi. Mamlakatimizda tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirishning muhim yo‘nalishi xizmat ko‘rsatish sohasini yanada rivojlantirish va soha korxonalarining samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Jahonning taraqqiy etgan mamlakatlarida globallashuv jarayoni hamda uning xizmatlar bozori shakllanishi va rivojlanishiga bo‘lgan ta’siridan kelib chiqqan holda qator muammolarning ilmiy yechimini ta’minlash yuzasidan maqsadli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, xizmatlar bozori egiluvchanligi, institutsionallashuvi va ijtimoiylashuvining kuchayishi, xizmatlar bozoridagi raqobat, yuqori ta’lim va kasbkorlik darajasini talab qiluvchi yangi faoliyat turlarining rivojlanishi, nostandart bandlik shakllarining kengayishi, ish vaqti yangi modellaridan foydalanish, ishlovchilar daromadlarining ko‘payishi, milliy mehnat bozori hamda transmilliy kompaniyalar va Xalqaro Mehnat Tashkiloti o‘zaro faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilgan.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi — “Pastdarg‘om tumanida kommunal xizmatlar sifati va uni rivojlantirish yo‘llari” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sharoitida kommunal xizmatlar tizimining ishonchliligi va samaradorligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan dolzarb tadqiqot hisoblanadi. Mavzuning dolzarbligi, avvalo, aholining hayot sifati, infratuzilma samaradorligi va hududiy barqarorlik masalalarining bevosita uy-joy va kommunal xizmatlar sifati bilan chambarchas bog‘liq ekani bilan belgilanadi.

Birinchi bobda raqamli iqtisodiyot sharoitida kommunal xizmatlarning mohiyati, huquqiy asoslari, xorijiy davlatlar (Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya) tajribalari puxta tahlil qilinadi. Bu qismning muhim jihati shundaki, xorij tajribasi mahalliy sharoitlarga moslashtirish nuqtai nazaridan ham yoritilgan.

Ikkinchi bobda esa Pastdarg‘om tumanining ijtimoiy-iqtisodiy holati asosida mavjud infratuzilma va kommunal xizmatlar ta’minoti darajasi chuqur empirik tahlil qilingan. Jumladan, suv, elektr, gaz, oqova tarmoqlari va yo‘llarning mavjud holati bo‘yicha statistik ma’lumotlar, jadval va ko‘rsatkichlar asosida muayyan nomutanosibliklar aniqlangan. Ayniqsa, tabiiy gaz ta’minotining past darajada (32%), kanalizatsiya tarmoqlarining kam qamrovi (12%) kabi kamchiliklar asosli tahlil qilingan.

Uchinchi bobda muammolarning yechimiga qaratilgan takliflar ilgari surilgan. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, xizmatlar sifatini monitoring qilish, “Mening uyim” axborot tizimi, billing va elektron reyestr kabi tizimlarni tatbiq etish orqali xizmatlar samaradorligini oshirish yo‘llari tavsiya etilgan. Shuningdek, xizmat ko‘rsatishdagi shaffoflik, fuqarolarning ishtiroki, davlat-xususiy sheriklik asosidagi yondashuvlar chuqur asoslab berilgan. Bitiruv ishining yana bir muhim jihati – uning metodologik asoslarining puxtaligidir. Ilmiy-nazariy tahlil, empirik kuzatuv, statistik tahlil, so‘rovnoma va suhbat metodlari izchil qo‘llanilgan. Ayniqsa, joylardagi amaliy holatni bevosita o‘rganish, xizmatlar sifati va aholining qoniqish darajasini aniqlashga qaratilgan metodologik yondashuvlar yuqori bahoga loyiq. Ilmiy yangilik sifatida esa, tumandagi mavjud infratuzilma holatining texnik, institutsional va ijtimoiy jihatlardan chuqur tahlil qilinishi, xorijiy tajribaning mahalliy sharoitga moslashtirilgan tavsiyalar shaklida berilishi, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilishi alohida e’tiborga loyiq.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida sharoitida Past Darg‘om tumanida kommunal xizmat ko‘rsatish sifatini rivojlantirishdagi muammolarni hal qilish yo‘llari, kommunal xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishborasida ilmiy va amaliy takliflar berishga qaratilgan bo‘lib, muallif qo‘yilgan maqsad doirasida tadqiqotlar olib borgan va sezilarli darajada natijalarga erishgan. Bundan tashqari, ishda kommunal xizmatlarning nazariy asoslari hamda innovatsion iqtisodiyoti sharoiti davrida uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish faoliyatining iqtisodiy tahlili masalalari atroflicha yoritib berilgan.

Shu bilan birga, ishda ba’zi grammatik va orfografik xato va kamchiliklar uchrab turadi. Ishda statistik ma’lumotlardan kengroq foydalanilganda va yillar bo‘yicha dinamik ma’lumotlar keltirilganda ishning amaliy ahamiyati yanada oshgan bo‘lar edi.

Xulosa qilib, Ablayeva Shoira Turdiboy qizi tomonidan “Kommunal xizmatlar sifati va uni rivojlantirish yo‘llari (Past Darg‘om tumani)” mavzusidagi bakalavr darajasini olish uchun yozilgan bitiruv malakaviy ishining ishining nazariy va ilmiy ahamiyga molik bo‘lib, ishning mazmuni va mohiyati Davlat Attestasiya Hay’ati tomonidan qo‘yilgan talablarga javob beradi va uning muallifi Ablayeva Shoira Turdiboy qizi 60310100-“Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) yo‘nalishi bo‘yichayozilgan BMIni YaDAKda himoya qilishga tavsiya etaman.

SamISI “Raqamli iqtisodiyot”
kafedrasi mudiri professor, i.f.d. K.Dj.Mirzayev

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti 60310100– “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” ta’lim yo‘nalishi IK-321 guruh bitiruvchisi Ablayeva Shoira Turdiboy qizining “Kommunal xizmatlar sifati va uni rivojlantirish yo‘llari (Past Darg‘om tumani misolida)” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Mamlakatimizda aholi moddiy va madaniy turmush saviyasining izchil yaxshilanib borayotganligi, iqtisodiyotimizning jadal va mutanosib rivojlanib borayotgani aholi hayot darajasi va sifatini izchil oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Bunday izchil yaxshilanishning ijtimoiy mezonlaridan biri shaxarlar va boshka aholi punktlarini markazlashgan issiqlik, suv, gaz va xokazolar bilan ta’minlanishi hisoblanadi. Chunki, insonning bo‘sh vaqti salomatligi, kayfiyati, mexnat faolligi yashash sharoitlaridagi qulayliklar qanday yo‘lga qo‘yilganligiga bog‘liq. Albatta, uy-joy kommunal xo‘jaligining rivojlanishi bilan undan foydalanish faoliyati kengayib, inson qobiliyatlarining ortishi uchun sharoitlar yaratiladi. Yuqoridagilar bois, uy-joy kommunal xo‘jaligi tizimi boshqaruvining takomillashuvi xalq farovonligini oshirish yuzasidan muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifa sifatida belgilangan. Bu vazifaning samarali bajarilishi moddiy ne’matlarni pirovard iste’molchilarga yetkazish, ya’ni moddiy ne’matlar istemoli jarayoniga xizmat ko‘rsatish, xodimlarning mexnat va dam olishi oqilona uyg‘unlashuvini mustaxkamlaydi.

Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, aholi daromadlarining o‘sishi samarali tashqi savdo hamda investisiya jarayonlarini kuchaytirish, aholi bandligini oshirish, qishloq xo‘jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, maishiy xizmat sohasini rivojlantirishda ahamiyatli yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda. Bugungi kunda oldimizga qo‘yilgan maqsadlarimizga erishishimiz uchun jamiyatimizning yangilanishi, aholi bandligi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohatlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuningdek, maishiy xizmat sohasi samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu holat mazkur disertatsiya ishining dolzarbligini belgilab beradi.

Shu sababli mazkur bitiruv malakaviy ishi dolzarb hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar va ilovalardan iborat bo‘lib, u institut nizomda belgilangan bitiruv malakaviy ishi talablariga mos keladi.

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirish natijasida talaba Pastdarg‘om tumanidagi kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalarda sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishga erishganligi ko‘rinib turibdi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyatini boshqarish muayyan hudud uy-joy kommunal xizmatlari iste’molchilari tomonidan xizmat sifatini davriy baholash natijalari asosida uy-joy fondini texnik ekspluatatsiya qilish va aholining xavfsiz yashashi bo‘yicha talablarning bajarilishini ta’minlash orqali takomillashtirilgan, past rentabelli kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalarini davlat- xususiy sherikchilik shaklida tashkil etish orqali uy-joy kommunal sohasi faoliyatining tashkiliy samaradorligini oshirish asoslangan.

Tadqiqot ishining yutuqlari bilan bir qatorda quyidagi kamchiliklarni ham ta’kidlab o‘tishni joiz deb topdik: ishning umumiy hajmini hech qanday ziyonsiz qisqartirish mumkin, ishning ikkinchi bobida har bir tumanlar kesimida ma’lumotlar tahlili yetarli emas, shuningdek, dissertatsiya ishida orfografik va statistik xatolar uchrab turadi.

Yuqorida qayd etilgan kamchiliklar asosan tavsiyali xususiyatga ega bo‘lib, ular dissertatsiyaning ilmiy saviyasi va amaliy ahamiyatini pasaytirmaydi.

Bitiruv malakaviy ishi mustaqil ravishda muallif tomonidan bajarilgan hamda to‘liq tugallangan ilmiy ish bo‘lib hisoblanadi. Muallif tomonidan olingan natijalar bo‘yicha xulosa va tavsiyalar ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Xulosa qilib, Ablayeva Shoira Turdiboy qizi tomonidan “Kommunal xizmatlar sifati va uni rivojlantirish yo‘llari (H tumani)” mavzusidagi bakalavr darajasini olish uchun yozilgan bitiruv malakaviy ishining ishining nazariy va ilmiy ahamiyga molik bo‘lib, ishning mazmuni va mohiyati Davlat Attestasiya Hay’ati tomonidan qo‘yilgan talablarga javob beradi va uning muallifi Ablayeva Shoira Turdiboy qizi 60310100-“Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) yo‘nalishi bo‘yichayozilgan BMIni YaDAKda himoya qilishga tavsiya etaman.

“Innovascience” MCHJ
direktori **M.H.Razoqova**

Bitiruv malakaviy ishini “Antiplagiat” dasturidan o‘tish jarayoni

NAMUNALAR



SERTIFIKAT

Tekshirish sanasi 16.06.2025
Raqami 374064

Ablayeva Shoira Turdiboy qizi

Muallif	Ablayeva Shoira Turdiboy qizi
Ish turi	Bitiruvchi ish
Fayl nomi	Ablayeva Shoira Turdiboy qizi.docx
Iqtiboslar	2.39%
O'z-o'ziga iqtibos	0%
O'zlashtirish	32.09%
Originallik	**65.52%**
Qidiruv modullari	29 ta moduldan / 29 tasida tekshirilgan

ANTIPLAG

© 2021-2025, MCHJ "Perspective Team". Barcha huquqlar himoyalangan.

Ma'lumotnomaning haqiqiyligini tekshirish uchun sertifikatdagi QR kodidan foydalaning.



Hujjat tekshirish natijalari

ANTIPLAG

HUJJAT TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR

HISOBOT TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR

M.E.Po‘latov, T.S.Sharipov, I.E.Shadmanov, B.M.Bobokulov, Sh.S.Sharifov, S.B.Boboqulov, Z.K.Raximov

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI TAYYORLASH VA RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

Uslubiy ko‘rsatma

Muharrir: Z.N.Bobodustov
Musahhih: M.O.Mardiyeva
Texnik muharrir: N.Ergashev

Uslubiy ko‘rsatma institut Kengashining 2025-yil 19-dekabrdagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (5-sonli majlis bayoni).

Nashrga ruxsat etildi: 19.12.2025

2026 yilda chop etildi.
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 4.25
Buyurtma № 0004A/26. Adadi 100 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.